



utubxonasi

«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2005



ERKIN VOHIDOV

O‘ZBEGIM

she’rlar



**«SHARQ» NASHRIYOT-MATBAA
AKSIYADORLIK KOMPAANIYASI
BOSH TAHRIRIYATI
TOSHKENT — 2005**

84(59)6-5
V-74

NO 31245
281

Vohidov Erkin

O'zbekim: She'rlar. — T.: «Sharq», 2005. — 128 b.

O'zbekiston Qahramoni, sevimli shoirimiz Erkin Vohidovning ko'p jildlik asarlari nashriyotimizda chop etilgan edi. Siz aziz o'quvchilarga taqdim etilayotgan ushbu she'rlarni muallifning o'zlari saralab berdilar. O'qing, ko'ngil mulkingizni boyiting. She'rlar hayotingiz mazmuniga, qalb qo'shig'ingizga aylangusidir.

BBK.84.(59)6

© «Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi Bosh tahririyati, 2005

2005 27/8 A	Alisher Navoiy nomidagi O'zbekiston
-------------------	---

Men jilg'aman

Men jilg'aman,
Daryo bo'lib to'lgim keladi.
Ona yurtim,
Senga o'g'lon bo'lgim keladi.
Bugun senga
Faqatgina she'r bag'ishladim.
Kerak bo'lsa,
Jonni fido qilgim keladi.

1953

Kamtarlik haqida

Garchi shuncha mag'rur tursa ham,
Piyolaga egilar choynak.
Shunday ekan, manmanlik nechun,
Kibru havo nimaga kerak?

Kamtarin bo'l, hatto bir qadam
O'tma g'urur ostonasidan.
Piyolani inson shuning-chun
O'par doim peshonasidan.


1956

* * *

Qaro qoshing,
qalam qoshing,
Qiyiq qayrilma qoshing, qiz.
Qilur qatlimga qasd qayrab —
Qilich qotil qaroshing, qiz.

Qafasda qalb qushin qiynab,
Qanot qoqmoqqa qo'ymaysan.
Qarab qo'ygil qiyo,
Qalbimni qizdiring, quyoshing, qiz.

1957



Sevgi

O'n sakkizga kirmagan kim bor,
Bog'ingdan gul termagan kim bor.
Sen haqingda yozib to'rt satr,
Sirdoshiga asta ko'rsatib,
Qo'shni qizga bermagan kim bor.

Dastlab har kim qalam olgan on
Yonib seni kuylar begumon.
Maskan qurib har bir ko'ngildan,
Oshiq'larni qoldirib tildan,
Shoirlarni qilursan biyron.

Tushdim chog'i men ham domingga,
Ezgu hislar baxsh etding menga,
Hayotimga zar lavha bo'lding,
Ilk she'ringa sarlavha bo'lding,
Xayollarim ulfatdir senga.

Yuragimda his etdim qanot,
Tilsim kabi ochilur hayot,
Visoldagi damlarim shirin,
Hijrondagi g'amlarim shirin,
Kulib boqar menga koinot...

O'n sakkizga kirmagan kim bor,
Bog'ingdan gul termagan kim bor...

1959

Po'lat

U dastavval oybolta bo'ldi,
So'ng zambarak bo'lib quyildi.
Qilich ham u,
 miltiq
 va nagan,
U bomba ham bo'lib portlagan.
Lekin olgan jahonni faqat
Pero bo'lib quyilgach po'lat.

1959



*Yo'q,
halovat istamayman*

Yo'q, halovat istamayman,
Orom bilmas yosh jonim.
To'liqin urgan ummoncha bor
Yurakdagi tug'yonim.

Bo'ronlarga, dovullarga
Peshvoz yurgim keladi.
Daryolarning girdobiga
Ko'krak urgim keladi.

Tinchlik bilmas odatimdan
Ozor cheksam mayliga.
Olov bo'lib bir dam yonsam,
So'ng o'chsam ham mayliga...

Har mushkulga bardosh berar,
Chidar mening tosh boshim.
Ammo sokin, tinch yashashga
Sira yo'qdir bardoshim.

1960

* * *

To tirikdirki tabiat,
To quyosh sochgayki nur,
Uch egiz bordir tushuncha,
Uch bu so'z yondosh bo'lur:
Mohiru mehru mahorat,
Olimu ilmu amal,
Oshiqu ishqu mashaqqat,
Shoiru she'ru shuur.

1961

She'r haqida she'r

(hazil)

She'rim, mana, bitding nihoyat,
Tunim uyg'oq o'tdi qoshingda.
Bitding dedim, sevinma faqat,
Qancha ish bor hali boshingda.

Hali seni yo'nib, tarashlab
Yuz martalab o'chirmog'im bor.
Qayta-qayta g'ijimlab tashlab,
Takror-takror ko'chirmog'im bor.

Axir bir kun mavsuming yetib,
Kirganida g'o'za shonaga,
Asta sening qo'lingdan tutib
Yetaklayman gazetxonaga.

Ilhom dilga bog'lagan qanot,
Shaxdam-shaxdam tashlaymiz odim,
Bizga aylab «shirin» iltifot,
Qarshi olar adabiy xodim.

Seni asta yonimdan olib,
Hayajon-la tutaman unga.
She'rmi? — deya u qovoq solib
Ko'zoynagin qo'yar burunga.

O'qib chiqar, tortmaga tashlar,
O'z ishini ettirar davom.
Endi, she'rim, shu kundan boshlab,
Sen meniki emassan tamom.

Hech kim seni she'r demas endi,
Hech kim demas qo'shiq yo g'azal.
Sen kuy, ilhom, shavq emas endi,
Bunda sening noming «material».



Urinmagin endi behuda,
Uchmoq uchun bog'lama qanot.
Orom olib shirin uyquda
Muharriming tortmasida yot.

Yoz haqida bitilgan bo'lsang,
Shoshma, hali qish kelguncha tur.
Baxting kulib, yil o'tgach, arang
Yarming chiqsa, shunga ham shukur.

Hali seni, she'rim, necha bor
G'urbatlarga yetaklar taqdir.
Bunda qancha... muxlislar bor,
Hali seni qilurlar tahrir.

O'zgaradi qancha kaloming,
O'zgaradi qanchalar lavhang.
Yozilganda «Tong» bo'lsa noming,
«Oqshom» bo'lar balki sarlavhang.

So'ng olamga yoygali qanot,
Elni o'zga qilgali «shaydo»
Quyosh yanglig' bir kuni — hayhot! —
Gazetada bo'lursan paydo.

O'z nomimdan taniyman arang,
Lol turaman sening qoshingda.
Navbat bilan tanqidchi akang
Yong'oq chaqar endi boshingda.

Tahlil aylab tersu o'ngingdan,
Ikkimizni qiladi behol.
Xo'p do'pposlab, tanqid so'ngida
Ijodimga tilaydi kamol.

1961



Ko'z oldimdan o'tadi bir-bir —
Allaqanday tumanli, xira —
Xayolimning qay burchidadir
Yo'qolmoqchi bo'lgan xotira.

U kunlarni tiklar xayolim,
Yodga kelar barcha, barchasi...
Odamlar,
Siz mening hayotim,
Har biringiz umrim parchasi.

1961

Samarqand kechasi

Munajjim tasbehidan to'kilgan donalardek
Osmon uzra sochilib yarqiraydi yulduzlar.
Oy sham'u tegrasida uchgan parvonalardek
To sahar javlon urib parpiraydi yulduzlar.

Qaddini kamon etib, yuzda tabassum izi,
Kecha sukunatiga quloq tutar yangi oy.
Nogahon eshitilsa chaqaloqning yig'isi,
Yana bir Ulug'bek deb o'ylab qoldi, hoynahoy.

Samarqand yulduzlari la'limikan, durdona,
Naqsh olmalar singari terib olgim keladi.
Har biri so'ylar ekan qadimdan bir afsona,
Sahargacha ko'z yummay quloq solgim keladi.

Ana Hulkar — yetti qiz imlar meni yiroqdan,
Oydin ko'chalar bo'ylab shu'lalarda oqurman.
Ulug'bek qadam qo'ygan bu muqaddas
tuproqdan,
Ulug'bek nigoh tikkan yulduzlarga boqurman.

Bu kecha ko'k ummoni mash'allarga to'lug'dur,
Hilolga qo'ngan yulduz suzar go'yo yelkanda.
Qadimiy shahrim uzra kezaman, dilda g'urur,
Yulduz to'la osmonni ko'targanCHA yelkamda.

1961



Qizaloq

Singlim Feruzaga

Qo'g'irchoqdan bir zum nari ketmasdan
Erkalar, bag'riga bosar qizaloq.
Hayot nima — hali idrok etmasdan,
Go'dakligiga ham aqli yetmasdan,
Ona bo'laman deb o'sar qizaloq.

Taajjub, kim solmish uning ko'ngliga,
Kirmoq qayda hali hayot yo'liga,
Ona allasiga qonmasdan hali,
Ertaga shu uyga beka bo'lgali
Supurg'i tutadi jajji qo'liga.

Halitdan onalik mehr-shafqatin
Dilingga soldingmi, erka qizaloq?
Tatib ko'rmay hali hayot zahmatin,
Mushfiq onalikning bor mashaqqatin
Bo'yningga oldingmi, erka qizaloq?

Gulzor yashagandek g'uncha qatida,
Tomchida quyoshning jamolin ko'rdim.
O'ylasam, o'y bitmas hayot haqida,
Shu jajji qizaloq tabiatida
Tabiatning buyuk kamolin ko'rdim.

1961

* * *

Oy fonusin ko'tardi osmon,
Yulduzchalar bo'ldi parvona.
Sayr etaylik, kel, birga, jonon,
Ko'nglim seni istar yagona.

Qo'llarimdan tut o'zing, dilbar,
Oydin yo'lga yetakla meni.
Oshiq bo'lib, ishon, shunchalar
Sevmagandim hech qachon seni.

Ajab, ortiq sarmastman bukun,
Ko'kragimga siqquday olam.
Bu kun lim-lim to'lmish lolagun
Ishq mayiga ko'ngil piyolam.

Kel, yulduzlar to'shalgan yo'ldan
Yetaklasin bizni muhabbat.
G'amlaringni chiqar ko'ngildan,
Shod kunlarni eslaylik faqat.

Sayr etaylik, kel, birga, erkam,
Rozi ketsin bizdan umrbod —
Shodlik uchun yaralgan olam,
Sevmoq uchun berilgan hayot.

1961

Kimni etmas bu ko'ngil shaydo

Dunyo ekan...
Ishq degan savdo
Bormi faqat mening boshimda?!
Kimni etmas bu ko'ngil shaydo,
Kim she'r yozmas mening yoshimda?!

Sevgi ilk bor tushdi-yu qalbga
Hayotimning bo'ldi mazmuni.
U qo'limga tutqazib qalam,
Ko'zlarimdan oldi uyquni.

Oldi butun fikru xayolim,
Ketdi dildan orom, halovat.
Sevgi butun borimni olib,
She'r zavqini qoldirdi faqat.

Borliq olam ko'zimga ming-ming
Go'zallikka to'lib ko'rindi.
Gullar menga oshiq bulbulning
She'r daftari bo'lib ko'rindi...

Ayb etmangiz,
Do'stlar, bu savdo
Bormi faqat mening boshimda?
Kimni etmas bu ko'ngil shaydo,
Kim she'r yozmas mening yoshimda?!

1961

Yurak va aql

Ikki kuch bor —
Yurak va aql
Ikki yonga tortuvchi meni,
Ular bundoq bo'lsa noahil,
Qay birining tutay izmini?

Meni bir yon boshlasa aqlim,
Boshqa yonga yetaklar yurak.
Bilolmayman, qay biri haqli,
Qay biriga ishonmoq kerak?

Aql mening har qadamimni
Solmoq bo'lar tarozu toshga,
Har daqiqa tergaydi meni,
O'xshama deb ko'cha beboshga.

Yurak esa unga so'z bermas,
Bu dunyoda faqat o'yna der.
Bilmas,
Sira bilgisi kelmas
Qonun nadir, qoida nadir.

Yor ko'yiga chorlasa biri,
Yur deb har kech aylasa xitob,
Biri uyga yetaklab kirib,
Qo'llarimga tutqizar kitob.

Aql aytar:
Sevding, o'sha qiz,
Ayt-chi, senga qilurmi vafo?

Yurak faqat sev der, sevgisiz —
Yashamoqdan bormi hech ma'no?!

Aql menga qilar nasihat:
«Yosh joningni o'rtama bekor».
Yurak bo'lsa yon deydi faqat,
Hayot bizga berilar bir bor.

Aql deydi:
She'ringdan ne naf,
Mashqlaringdan lazzat olar kim?
Yo'q, der menga, o'ltirma o'ylab,
She'r yoz deydi nodon yuragim...

Aql cheksiz fazoga hokim,
Aql hokim olam yuziga.
Borliq unga bo'ysunar,
Lekin
Yurak kirmas uning so'ziga.

Shundan bir yon boshlasa aqlim,
Boshqa yonga yetaklar yurak.
Bilolmayman, qay biri haqli,
Qay biriga ishonmoq kerak.

Aybli emas bunda irodam,
Ma'zur tuting, do'stlar, siz meni.
Aql qancha haqli bo'lsa ham,
Tutar bo'ldim yurak izmini.

U baxsh etgan otashda yondim,
O'zi bo'ldi menga rahnamo.
Unga,
Faqat unga ishondim,
Yurak meni aldamas aslo!

1962

Go'zallik

Mulki borliq ichra bir mahal
Ko'rxsizgina olam yaralgan.
Bermoq uchun dunyoga sayqal
Olam aro odam yaralgan.

Shundan beri inson tinmayin
Shu yer uzra ter to'kar hamon.
Yerni go'zal qilgani sayin
Go'zal bo'lar o'zi ham inson.

1962

Chumoli

G'ayrat kamarini beliga bog'lab,
O'zidan kattaroq cho'pni ortmog'lab,
Manzilga tez yetmoq yolg'iz xayoli —
So'qmoq yo'ldan borar
Chumoli.

Atrofiga boqmas, ishlar uzun kun,
Ko'pning xirmoniga qo'shmoq uchun don...

Yo'q,
Odam ajdodi bo'lmagan maymun,
Chumolidan tarqalgan inson.

1962

* * *

Fursat — oltin,
Sen ko'krak kerib
Oltiningni sochib borasan.
Fursat quvar,
Unga chap berib,
So'rog'idan qochib borasan.

U yetolmas,
Yoshsan — abjirsan,

Qolmay kelar lekin orqangdan.
Qochma yigit,
Vaqt kelar, birdan —
Fursat mahkam tutar yoqangdan.

Foyda bermas
Ming tavbang u kun
So'rar ekan fursat sarhisob.
Benaf o'tgan
Hayoting uchun
Vaqt oldida berursan javob.

1962

Azganush

Arman qiziga

Ko'rdimu lol bo'ldi aqlim, o'ngmidi bu yoki tush,
Bo'lsa ham o'ng, yo seni ko'rgach, boshimdan
uchdi hush.

Sen baland tog' uzra erding misli ohu yoki qush,
Yolvorib men pastda derdim: bir nafas yonimga tush.
Azganush, hoy, Azganushim,
Azganushjon, Azganush.

Sen xayolning bir damilik jilvasimu chinmiding,
Yo g'azallarda bitilgan «ul parivash» senmiding.
Orazi gul, sochi sunbul, bir tani
siyminmiding,

Balki Shirin Shirin ermas, sen o'zing
Shirinmiding?

Azganushim,
Azganushjon, Azganush, hoy,
Azganush.

O'sma qo'ydingmu qoshingga, bunchalar tim
qoradir,
Bilmadim, bu qoshlaringdan qancha dillar
poradir,

Rahm qilg'il, bitta o'zbek shunchalar
yolvoradir,
Tush o'zing, yo ayt, yoningga qaysi yo'ldan
boradir?

Azganushjon,
Azganush, hoy, Azganushim,
Azganush.

Boq, bu tog'lar ortida bir o'lka bordir ko'p
yiroq.
Men qanotli yo'lchiga bu bir nafaslik yo'l
biroq,
Yur, parivash, men bilan yur, bormi senda ishtiyoq?
Gul tutarman senga so'lmas ul chamandan bir
quchoq.

Azganushim, Azganushjon,
Azganush, hoy, Azganush.

Fuzuliy haykali qoshida

Yellar, bir daqiqa to'xtang esishdan,
Sernavo bulbullar, sayramang biroz.
Karbalo dashtida yayov kezishdan
Charchab tin olmoqda Fuzuliy ustoz.
Dengiz, to'lqinlaring urma qirg'oqqa,
Shoir o'ylariga bermagil xalal.
Ustoz yuragida she'r tug' ilmoqda,
Dunyoga kelmoqda bir munis g'azal:
«Sabo, ag'yordan pinhon g'amim
dildora izhor et,
Xabarsiz yorimi holi xarobimdan
xabardor et,
Ko'ngil, g'am gunlarin tanho
kechurma, ista bir hamdam,
Ajral xobindin afg'onlar chekib
Majnunni bedor et».
Yaproqlar tebranar she'r maqomiga,
Chechaklar jimgina egib turar bosh.
Marmar sarhovuzning kumush jomiga

Shoir ko'zlaridan oqib tushar yosh.
Boku bog'lariga cho'kmoqda oqshom,
Dengiz mavj uradi tovlanib zarhal.
Shoir yuragidan toshganda ilhom,
Yosh bilan quyulib keladi g'azal:
«Parishon holing o'ldim, so'rmading
holi parishonim.
G'amingdan darda tushtim,
qilmading tadbiri darmonim,
Na dersan, ro'zigorim bo'ylami kechsun,
go'zal jonim.
Go'zim, jonim, afandim, sevdigim,
davlatli sultonim».

Oshiqlar uxlaydi saharga tomon
Fuzuliy devonin boshiga qo'yib.
Majnun sevgisidan o'qilsa doston,
Bulbullar tinglaydi butoqqa qo'nib.
Xalqim jondin sevar dilbar kuylarni,
Xalqim she'riyatga shaydodir azal.
Nechun band etmasin fikru o'ylarni,
Nechun mahv etmasin qalblarni g'azal?! —
«Muqavvas qoshlaringkim, o'sma
birla rang tutmishlar,
Qilichlardirki qonlar to'kmak ila
zang tutmishlar,
Sahar bulbullar afg'oni dagil
behuda gulshanda,
Fuzuliy nolayi dil so'zina ohang
tutmishlar».

G'azal ham bo'lurmi muncha dilrabo,
Bunchalar serishva, bunchalar sernoz.
Mening shoirligim yolg'ondir,
ammo
Fuzuliy she'riga oshiqligim rost.
Majnundek beorom bo'lib qolganim
Sarsari yugurgan to'lqinlar aytsin,
Kechalar uyqusiz she'r yod olganim
Tonggi ufqdagi yolqinlar aytsin.
«Shifoyi vasl qadrin hajr ila bemor
o'landan so'r,

Zuloli shavq-zavqin tashnayi diydor
o'landan so'r.
Ko'zi yoshlularing holin na bilsun
mardumi g'ofil,
Kavokib sayrini shab to sahar bedor
o'landan so'r.
Yellar, bir daqiqa to'xtang esishdan,
Sernavo bulbullar, sayramang biroz.
Karbalo dashtida yayov kezishdan
Charchab tin olmoqda Fuzuliy ustoz.
Dengiz, to'lqinlaring urma qirg'oqqa,
Shoir o'ylariga bermagil xalal.
Ustoz yuragida she'r tug'ilmoqda,
Dunyoga kelmoqda yangi bir g'azal.

Mening yulduzim

Yosh ko'nglimda orzularim mo'l,
Quyosh erir yurak taftimga.
Men osmonga uzatganda qo'l,
Sayyoralar qo'nar kaftimga.

Tafakkurning po'lat qushida
Ko'z-ko'z etib bu yoshlik ko'rkin,
Cheksiz fazo — nur og'ushida
Yiroqlarga uchaman bir kun.

Parvonadek o'ynab, parpirab,
Atrofimni o'rar yulduzlar.
Hayrat ichra yonib, yarqirab
Asta mendan so'rar yulduzlar:

«Qanday yorug' yulduzsan, ajab,
Qanday porloq sayyoradirsan?
Yoki biror turkumdan ajrab
Biz yoqlarda overadirsan?

Nechun kirding sho'x davramizga
O'tdek yonib hatto kunduzlar?...»
Shunda deyman:

Kimligim sizga
Bayon etay, tinglang, yulduzlar.

Tafakkurim — sinmas qanotim,
E'tiqodim — nur va oftob.
Men insonman, mening hayotim
Tarixlarda buyuk bir kitob.

Men insonman, qalbidam otash,
Quyoshdan toj, oydan taxt qurdim.
Men insonman, ko'hna, jafokash,
Tuprog'imda mangu baxt qurdim.

Yiroqlarda, moviy ufqda,
Borlig'imni band etib manim,
Porlab turar dilbar bir nuqta,
O'sha yulduz — mening Vatanim.

Qayda parvoz etmayin o'zim,
Yodi bilan bo'lurman xurram.
O'sha mening tole yulduzim,
O'sha mening muqaddas kurram...

1963

Bir tomchi yosh

Cho'qqidan bir kichik tosh yumalasa,
Tog'ni qulatgudek suron qiladi.
Ko'zingdan bir tomchi yosh yumalasa,
Tog'day yuragimni vayron qiladi.

Agar ko'ksim uzra qulasa birdan,
Tutmoqqa qodirman tog'lar toshini.
Hayhot, ko'tarolmam kipriklaringdan
Uzilgan bir qatra qayg'u yoshini...

1964

Bosh tebratar soat kafgiri...

Bosh tebratar soat kafgiri,
Der: qadrimni bilmas odamlar.
Sekundlarim gavhar har biri,
Nega parvo qilmas odamlar?!

Bosh tebratar soat kafgiri,
Shoshil, odam, o'tmoqdadir on.
Har narsaning bo'lar oxiri,
Bosh tebratib qolma so'ng, inson!

1964

* * *

Bolalarni shaytonlardan qo'rqitmangiz,
Bobov keldi, deb ko'rpaga berkitmangiz,
To ulg'ayib, duch kelganda «bobov»larga,
O'xshamasin itdan qo'rqan soqovlarga.

Bolalarni shaddodlikka o'rgatmangiz,
Rahmsizlik, bedodlikka o'rgatmangiz.
To ulg'ayib, duch kelganda insonlarga,
O'xshamasin andishasiz shaytonlarga.

1964

Sadoqat

Keksa qayrag'ochning
Ildizin ochib,
Tortdilar qo'sh arqon solib belidan.
Lekin u tuproqqa panjasin sanchib,
Sira qo'zg'almasdi
Ungan yeridan...
Nihoyat gurs etib yerga quladi,
Butab, so'ng ko'tarib ketdilar, biroq —
U o'z panjasida olib jo'nadi
Yashagan yeridan
Bir siqim tuproq.

1964

Go'zallik,
nafosat,
kurash va san'at
She'r ila shaxmatga azaliy udum.
Ming yillik umrida ular beshafqat
Doimo shohlarga boshlagan hujum.

Shaxmat ko'p o'ynalgan, she'r ko'p yozilgan,
Odatiy yurishlar hammamizga yod.
Bobolar o'ynagan usullar bilan
Ular nabirasin qilib bo'lmas mot.

O'yin ermak emas she'r ham, shaxmat ham —
Aqllar kurashi, tuyg'ular jangi.
Bu jangda qo'yilgan har bitta qadam
Odilu haq bo'lsin,
Go'zal va yangi.

Men orzu qilaman,
To'rt yo'l she'r bitib,
Elga manzur qilsam aqalli bir bor,
Shaxmatni ilk bora ixtiro etib
Quvongan hindidek edim baxtiyor.

Shaxmat abadiydir,
She'r abadiy.
Yurish tugamas-u so'z bo'lmas tamom.
Shaxmat taxtasida,
She'r maydonida
G'oyalar kurashi etadi davom.

1964

Kecha va kunduz

Yorug' dunyo bor ziyosin teng
Taqsim etgan kecha, kunduzga.
Nur qadriga yetmay tun, uni —
Sochdi oyga, minglab yulduzga.

Shundan oyning yuzi dog' ekan...
Yulduzlar ham xuddi munchoq yosh...
Kunduz esa barcha nuridan
Yaratibdi birgina quyosh.

1965

Uchi tuguk dastro'mol

Qo'shnim ishga ketayotir saharlab,
Bir qo'lida uchi tuguk dastro'mol.
Yo rektorga aytmoqchidir muhim gap,
Kechqurunga go'sht kerakdir ehtimol.

Kim biladi, balki zarur kiritmoq
Ilmiy kengash qaroriga yangi band,
Yo do'stiga qilmoqchidir qo'ng'iroq,
Olmoqchidir bolalarga xo'rozqand.

Balki... yana boshqa ming bir xil sabab,
Unutmasin deb parishon bu xayol,
Qo'shnim ishga ketayotir saharlab,
Bir qo'lida uchi tuguk dastro'mol.

Shoshma, do'stim, barcha ishing bitadi,
Bitmas ish yo'q, oshiqmasin yuraging.
Inson umri axir yeldek o'tadi,
Bosh ko'tarib atrofingga qaragin.

Qara, bahor sep yozibdi olamga,
Qara, g'uncha gul shoxini egibdi.
Yasanishni unutmay deb bayramga,
Balki u ham ro'molchasin tugibdi.

Bu dunyoda kim betashvish, kim beg'am,
Har insonning bir boshida ming xayol.
O'ylab ko'rsam, miyamizning o'zi ham
O'n to'rt milliard uchi tuguk dastro'mol.

Odam yashar zamon yukin orqalab,
Serg'alvaroq kechasidan buguni.
Orom bermas ko'kragida betinch qalb
Bamisoli dastro'molning tuguni.

Shoshma, do'stim, barcha ishing bitadi,
Muhim gap ham, qo'ng'iroq ham, xo'rozqand.
Ammo seni ertangi kun kutadi.
Erta yana dastro'molning uchi band.

Bugungidek yana sahar turasan,
Ajratasan keraklarning keragin...
Sochlaringda bir tola oq ko'rasan
Birinchi bor sanchganida yuraging.

Taqdir deylar, bilmam nadir taqdiring,
Balki oltmish, balki yuzga kirgan chol...
Boshing uzra unsiz yig'lar kamping,
Bir qo'lida uchi tuguk dastro'mol.

Hayot asta so'nar ekan ko'zingda,
Yurak sendan hisob so'rar o'sha kun.
Bo'lganmi hech ixtiyoring o'zingda,
Biror soat yashadingmi betugun?

O'yla, do'stim, kelmay turib o'sha dam,
Isrof qilma yosh yurakning kuchini.
Mana bu gap hech chiqmasin yodingdan,
Tugib qo'ygin dastro'molning uchini.

1966

Debocha

Istadim sayr aylamoqni
Men g'azal bo'stonida.
Kulmangiz, ne bor senga deb
Mir Alisher yonida.

She'riyat dunyosi keng,
Gulzori ko'p, bo'stoni ko'p,

Har ko'ngil arzini aytur
Neki bor imkonida.

Ey munaqqid, sen g'azalni
Ko'hna deb kamsitmagil,
Sevgi ham Odam Atodin
Qolgan inson qonida.

Toshga ham shirin g'azal
Baxsh aylagay otash va jon,
Shavq o'ti yonsa agar
Shoir — g'azalxon qonida.

Rost, g'azal avjida barcha
Oy ila Zuhro emas,
Ko'p erur somonchilar ham
She'riyat osmonida...

Do'stlarim, shoir demang,
Erkin g'azal shaydosidur,
Yosh deng-u ma'zur tuting
Sahv o'lsa gar devonida.

1967

Barcha shodlik senga bo'lsin

Barcha shodlik senga bo'lsin,
Bor sitam, zorlik menga.
Barcha dildorlik senga-yu,
Barcha xushtorlik menga.

Sen mening jonimni olgin,
Men sening darding olay,
Barcha sog'lik senga bo'lsin,
Barcha bemorlik menga.

Senga bo'lsin barcha husnu
Menga bo'lsin barcha ishq,
Kori xunxorlik senga-yu,
Mehri poydorlik menga.

Bu jahonning rohatin ol,
Bor azobin menga ber,
Senga bo'lsin barcha orom,
Barcha bedorlik menga.

Ol o'zing koshonalarni,
Menga qo'y mayxonani,
Barcha hushyorlik senga-yu,
Barcha xummorlik menga.

Senga bo'lsin nurli kunduz,
Menga qolsin qora tun,
Barcha gulshan senga bo'lsin,
Bor tikanzorlik menga.

Sen shahanshohlikni olgin,
Menga qullik bo'lsa bas,
Bor jafokorlik senga-yu,
Bor vafodorlik menga.

Mayli, ostonangda yotsam,
Mayli, quvsang tosh otib,
Bor dilozorlik senga-yu,
Bor dilafgorlik menga.

Senga she'rni bitsin Erkin,
Yirtib otmoq o'z ishing,
Kasbi inkorlik senga-yu,
Aybga iqrorlik menga.

1967

Surma

Aslida kim qarardi
Yotganda xor surma,
Bo'ldi aziz, ko'ziga
Surtganda yor surma.

Ko'zda qaro na iz bul,
Tun dog'idan asarmu.

Mayxona kezdimu yo
Mastonavor surma.

Yor ko'ziga yetishmak
Savdo ekan-ku dushvor,
Yonib ko'mir bo'libdi
Bechora zor, surma.

O'rtanma, kuyma ortiq
Jismim qaro ekan deb,
Ishq yo'lida qarolik
Taqdirda bor, surma.

Ming yil yotib seningdek
G'am tog'ining tagida,
So'ng mayli bo'lsam oxir
Tolega yor, surma.

Yor ketdi-yu, qolibdir
Yo'l o'rtasida Erkin,
Ko'nglida surmaso ko'z,
Ko'zda g'ubor surma.

1967

Yo'q emish orzuda ayb...

Saydi ishq bo'lgan ko'ngilga
Qo'ymangiz behuda ayb.
Bo'lsa bandi domi sayyod,
Yo'q erur ohuda ayb.

Bandga tushgan bu ko'ngildur,
Menda, ayting, ne gunoh,
Dil qushiga dom qo'ygan
Ul ikki joduda ayb.

Jodu ko'zlar bandi yolg'iz —
Sen emas, tutqun yurak,
Avval oxir ko'hna meros
Ishq degan tuyg'uda ayb.

Ey ko'ngil, o'z mayling ila
Bo'lding ishq domiga band.
Izlama endi bahona,
Demagin u-buda ayb.

Sevgi dardidan mening ham
Bo'ldi rangim kahrabo,
Yo'q iloj, ne naf o'kinmak
Bo'lmasa ko'zguda ayb?

Sen-ku Zuhrosan falakda,
Intizoringman faqat,
Ne ajab, tolpinsa ko'nglim,
Yo'q emish orzuda ayb.

1967

Sarv

Kecha oydin, mavjli dengiz,
Kuy to'qir bedor sarv,
Oy kelib sarv uzra qo'ndi,
Bo'ldi oyruxsor sarv.

Ikki sarvning o'rtasida
Men turibman lolu gung,
Bir tomon sarv qadli dildor,
Bir tomon dildor sarf.

Lolu gungman, boisi sarv,
U seni ko'rgan kecha
Yerga kirmabdir, taajjub,
Bu qadar beor sarv.

Bir boqishda oshiq o'lmak
Bul ajablik demagil,
Bir ko'rib qaddingga mangu
Bo'ldi-ku xushtor sarv.

Bo'y cho'zib har yon qaraydur,
Bundaman deb ayt, sanam,

Qomatingni bir ko'rarga
Kechadin xummor sarv.

Men-ku yor vasliga keldim
Sarv tagin xilvat bilib,
Erta tong olamga so'ylab
Qilmagin oshkor, sarv.

Lablaridan bo'sa izlab
Jon suvin topdim bu kech.
Sarv tagida baxtli bo'ldim,
Ham bu baxtga yor sarv.

Sochu qadding yodin Erkin
Gar unutsa bir nafas,
Unga sunbul sirtmog' o'lsin,
Mayli, bo'lsin dor sarv.

1967

Senga baxtdan taxt tilarman

Sen g'anisan, menda bisyor ehtiyoj.

Nodirabegim

Senga baxtdan taxt tilarman,
Toledan boshingga toj,
Mulki husningga omonlik,
Toju taxtingga rivoj.

Toju taxt tashbehidan sen
Ko'hna deb kulsang netay,
Sen axir shohi jahonim,
Men qulingman, ne iloj?

Ne ilojkim, davlatim yo'q,
Ganji mehrimdan bo'lak,
Bul evazdin ko'z to'laydur
Qatra-qatra dur xiroj.

Ko'zlarim aylar hamisha
Arzi muhtojlik senga,
Ayt-chi, jonim, bormi senda
Ko'z yoshimga ehtiyoj?

Ko'p nasihat tinglab Erkin
Qilmadi hech tarki ishq,
Bor masalkim, ish yurishmas
Sohibi gar bo'lsa koj.

1967

Yoshligim

Yoshligim, kel, kuyga to'lgan
Qalbm oltin sozi bo'l,
Men qo'shiq aytay to'lib,
Bir lahza jo'r ovozi bo'l.

Dilga oqsin baxtli umrim
Kuy bo'lib, ohang bo'lib,
Sen uning «Oromijon»i,
«Gulyor»u «Shahnozi» bo'l.

Orzu-istakdin-ku shodon
Dilga bog'labsan qanot,
Bu tilak osmonining
Doim baland parvozi bo'l.

Ketmagin aslo, hayotim
Gulshanin tark etmagil,
Bir umr men birla qolgin,
Bu ko'ngil hamrozi bo'l.

Yoshligim dostoniga men
Shu'ladin yo'ndim qalam,
Ey sahar ufqi, uning sen
Zarvaraq qog'ozi bo'l.

Yoshligim sen menga bergan
Kuch, shuuring, g'ayrating

Xalqu yurtga baxsh etolsam,
Shunda mendan rozi bo'l.

1959—1967

Xayol

Kechalar kipriklarimda
Tarki xob aylar xayol,
O'z hayotimdan o'zimga
Sarhisob aylar xayol.

Qissa aytur mozidin goh,
Ertadan afsona goh,
Goh savol aylar ko'ngilga,
Goh javob aylar xayol.

Ko'kda suzgan oyni ko'zga
Bir kichik fonus etib,
Pirpirab yonguvchi shamni
Mohi tob aylar xayol.

May to'la jom ichra to'fon
Mavjini paydo qilur,
Tong shafaq alvonini
Gulgun sharob aylar xayol.

Ming asrlar kori holin
Qilgay u bir soniya,
Lahzaning mazmunini
Ming bir kitob aylar xayol.

Neki zabt etmish shuur,
Bois xayol o'lsa, ne tong,
Dilga parvoz ayla deb
Mangu xitob aylar xayol.

Bu shitob asrim xayolga
Etdimu tezlikni baxsh,
Bilmadim, asrimni olg'a
Yo shitob aylar xayol.

Bor ekan inson qo'lida
Orzu yoqqan charoq,
Bu charoqni, o'yla, bir kun
Oftob aylar xayol.

Men xayolni she'rga soldim,
O'yparast bo'lma va lek,
Besamar bo'lsa seni
Bir kun xarob aylar xayol.

Bo'lgin, Erkin, har nafas
Ezgu xayolga oshino,
Pok esa niyat, seni
Oliyjanob aylar xayol.

1967

Uzum

Termular shabnamli yaproq —
Ostidan pinhon uzum,
Lablaringga yetmoq istab
Tong sahar giryon uzum.

Oftob mashshotasi
Tok sochini nurdan tarab,
Zangining bo'yniga osmish
Shodayi marjon uzum.

Toqi ishkomb misli osmon,
Har taraf yulduz sochur.
Voh ajab, bu ne sinoat,
Yer uzum, osmon uzum.

Tark etib ko'shkin, savatga
Qo'ydi bosh, izlab seni
Charx urib bozor ichida
Bo'ldi sargardon uzum.

Kimki oshiqlikni da'vo
Aylasa shuldir jazo,

Oqibat xum ichra bo'ldi
Mahkumi zindon uzum.

Xum ichida necha yil
Xun bo'lmoq erkan qismati,
Lablaringga yetdi oxir
Bir piyola qon uzum.

Bir qadah gulgun sharob
Tutdim senga, bir ho'plading,
Toleyimdan voladurman,
Baxtidan hayron uzum.

Ey dilorom, senga Erkin
Tutdi maydek she'rini,
Dil xumida necha yil
Qon bo'ldi bu devon — uzum.

1967

Do'st bilan obod uying

Do'st bilan obod uying,
Gar bo'lsa u vayrona ham,
Do'st qadam qo'ymas esa,
Vayronadir koshona ham.

Intizor har uy dilovar
Dilkusholar bazmiga,
Gar oyoq qo'ysa qabohat
Yig'lagay ostona ham.

Yaxshi do'stlar davrasida
Ochilursan har zamon,
Ko'rkni shoda ichra topgay
Marvarid durdona ham.

So'rma mendan, kim diloro,
Do'stmi yo jonona deb,
Do'st mening ko'nglimdadir,
Jonimdadir jonona ham.

Qochma rostgo'y do'stlarning
Kohishu ozoridan,
Qaddi rost shamning tilidan
O'rtanur parvona ham.

Do'st qidir, do'st top jahonda,
Do'st yuz ming bo'lsa oz,
Ko'p erur bisyor dushman
Bo'lsa u bir dona ham.

Kim senga hamroz emasdir,
Bog'araz deb o'ylama,
Gohi dushmanlik qilurlar
Qo'l siqib do'stona ham.

Do'sti sodiq yo'q ekan deb
O'rtanib kuyma va lek,
Mehr uying keng ochsang Erkin,
Do'st bo'lur begona ham.

1967

Rashkim

Seni yotlar tugul hatto —
Qilurman rashk o'zimdan ham,
Uzoqroq termulib qolsam
Bo'lurman g'ash ko'zimdan ham.

Ko'zim yongay senga nargis —
Ko'zin tiksa chamanlarda,
Yashirmam, lolaga rashkim
Ayon bo'lgay yuzimdan ham.

Degaylarki, charosu
Ol gilos olmish labingdan rang,
Labing tegsa hasad qilgum
Gilos birlan uzumdan ham.

Seni jonim dedim yolg'iz,
Seni qalbim dedim tanho,

Chimirding qosh, pushaymonman
Qo'pol aytgan so'zimdan ham.

Visol onida ko'z ochsa,
Ne tong, tongdan ko'ngilda ranj,
Judo qilgay meni oy yuz,
Xumor ko'z yulduzimdan ham.

Senga o'n to'rtida bog'landim,
Hanuz erkin bo'lolmas dil,
O'zim dog'man, aql kirmas,
To'zimsiz o'ttizimdan ham.

1967

Dutorim tori ikkidur...

Dutorim tori ikkidur:
Biri quvnoq, biri mahzun
Ki, baytim satri ikkidur:
Biri dilxush, biri dilxun.

Nigorim chashmi ikkidur:
Biri yag'mo, biri jodu,
Bu jodudan ikki ko'zim
Biri Sayhun, biri Jayhun.

Jahonda ikki dilbaming
Biri sensan, biri Laylo,
Jahonda ikki oshiqning
Biri menman, biri Majnun.

Jahonda ikki yulduz bor:
Biri sensan, biri Zuhro,
Misoli ikki nuqtamning
Biri ostin, biri ustun.

Jahonning mehri ikkidur:
Biri sensan, biri oftob,
Tarozi pallasi ikki:
Biri yerdur, biri gardun.

Makoni ikki lochinning —
Biri qoya, biri osmon,
Qanoti ikki shoirning —
Biri o'lka, biri ochun.

G'azal bitmakda sachrabdur
Ko'zimdanda yosh, dilimdanda o't.
Shu bois ikki satrimning
Biri qatra, biri uchqun.

Kelib bog' sayridan Erkin
G'azalga to'lqin izlardim,
Kirib keldi ikki do'stim:
Biri Sayyor, biri To'lqin.

1968

Oyning o'n beshi qorong'u

«Umrini oshiq hamisha
O'tkazur orzu bilan».
Oyning o'n beshi qorong'u,
O'n beshi yog'du bilan.

Sevgida ko'ksingga tomgan
Ko'z yoshingdan foyda yo'q,
Ishq axir shunday olovki,
O'chmagay u suv bilan.

Zahmati ishq dard erursa,
Zahmati she'rdur davo,
Chunki, og'uning shifosi,
Deydilar, og'u bilan.

Barcha zahmat menga bo'lsin,
Mayli, doim men yashay
Bu ajib totli azobu
Bu shirin qayg'u bilan.

Yoshligim — umrim nahori,
Ishqu she'rsiz ne hayot?

Tongni yolg'iz g'aflat ahli
O'tkazur uyqu bilan.

Yorni men jonim deb aytsam,
Iltifot deb o'ylama,
U yashar mensiz va lekin
Men tirikman u bilan.

1968

Gullar bazmi

Gul fasli sanam
Sayr ila gulshanda bo'libdur,
G'uncha ko'z ochib,
Gul yuzida xanda bo'libdur.

Gullar ichida
Shohi o'zim, der edi lola,
Mag'rurligidan
Ul o'zi sharmanda bo'libdur.

Karnay gulining
Og'zi ochiq, volayu hayron,
Nargisning, ajab,
Ikki ko'zi sanda bo'libdur.

Saf-saf tizilib
Safsar oyog'ingga qo'yib sar,
Band-band uzilib,
Joni bilan banda bo'libdur.

Qirq boshlarimiz,
Qirq deya qirq og'a-ini gul,
Tig'ingga ular
Bari sarafkanda bo'libdur.

Yuz jilva bilan
Nozli xirom etsa pechakgul,
Shohigul aning
Raqsiga xonanda bo'libdur.

Qalqib keladir
Suvda nilufar senga peshvoz,
Oq shohida hur
Sayr ila yelkanda bo'libdur.

Gulshanda kezib
Xo'p sara guldasta tuzibsan,
Erkinning esa
She'ri parokanda bo'libdur.

1968

O'rtada begona yo'q

Ko'yida men tosh boshimni
Urmagan ostona yo'q.
Elda bor shunday masal:
Jon chekmasang jonona yo'q.

Sevgi vodiysida menga
Teng bo'lolgay qaysi Qays?!
Ko'nglim ochsam, ikki dunyo
Bu kabi afsona yo'q.

Shahr ichida holatimdan
Kulmagan bir oqilu
Xilvat ichra menga ulfat —
Bo'lmagan devona yo'q.

Ne ajabkim, mast bo'libman
Ko'zlaringga termilib,
Yetti iqlimda bu yanglig'
May yo'g'u mayxona yo'q.

Ishq g'amin aytsam qalamga
Ich etin kuydirdi ul,
Sevgidek o't yo'q jahonda,
Men kabi so'zona yo'q.

Oq qog'ozim, senga Erkin
Ochdi pinhon ishqini,
Sen boru men bor, qalam bor,
O'rtada begona yo'q.

1968

O'zbekim

(*qasida*)

Tarixingdir ming asrlar
Ichra pinhon, o'zbekim,
Senga tengdosh Pomiru
Oqsoch Tiyonshon, o'zbekim.

So'ylasin Afrosiyobu
So'ylasin O'rxun xati,
Ko'hna tarix shodasida
Bitta marjon, o'zbekim.

Al Beruniy, Al Xorazmiy,
Al Forob avlodidan,
Asli nasli balki O'zluq,
Balki Tarxon, o'zbekim.

O'tdilar sho'rlik boshingdan
O'ynatib shamshirlarin
Necha qoon, necha sulton,
Necha ming xon, o'zbekim.

Tog'laring tegrangda go'yo
Bo'g'ma ajdar bo'ldi-yu,
Ikki daryo — ikki chashming,
Chashmi giryon, o'zbekim.

Qaysari Rum nayzasidan
Bag'rida dog' uzra dog',
Chingizu Botu tig'iga
Ko'ksi qalqon, o'zbekim.

Yog'di to'rt yondin asrlar
Boshingga tiyri kamon,
Umri qurbon, mulki toroj,
Yurti vayron, o'zbekim.

Davr zulmiga va lekin
Bir umr bosh egmading,
Sen — Muqanna, sarbador — sen,
Erksevar qon, o'zbekim.

Sen na zardusht, sen na buddiy,
Senga na otash, sanam,
Odamiylik dini birla
Toza imon, o'zbekim.

Ma'rifatning shu'lasiga
Talpinib zulmat aro,
Ko'zlaringdan oqdi tunlar
Kavkabiston, o'zbekim.

Tuzdi-yu Mirzo Ulug'bek
Ko'ragoniy jadvalin,
Sirlı osmon toqiga ilk —
Qo'ydi narvon, o'zbekim.

Mir Alisher na'rasiga
Aks-sado berdi jahon,
She'riyat mulkida bo'ldi
Shohu sulton, o'zbekim.

Ilmu she'rda shohu sulton,
Lek taqdiriga qul,
O'z elida chekdi g'urbat,
Zoru nolon, o'zbekim.

Mirza Bobur — sen, fig'oning
Soldi olam uzra o't,
Shoh Mashrab qoni senda
Urdu tug'yon, o'zbekim.

She'riyatning gulshanida
So'ldi mahzun Nodira,
Siyam tanni yuvdi ko'z yosh,
Ko'mdi armon, o'zbekim.

Yig'ladi furqatda Furqat
Ham muqimlikda Muqiyim,
Nolishingdan Hindu Afg'on
Qildi afg'on, o'zbekim.

Tarixing bitmakka, xalqim,
Mingta Firdavsiy kerak,
Chunki bir bor chekkan ohing
Mingta doston, o'zbekim.

Ortda qoldi ko'hna tarix,
Ortda qoldi dard, sitam,
Ketdi vahming, bitdi zahming,
Topdi darmon, o'zbekim.

Bo'ldi osmoning charog'on
Tole xurshidi bilan,
Bo'ldi asriy tiyra shoming
Shu'la afshon, o'zbekim.

Men Vatanni bog' deb aytsam,
Sensan unda bitta gul.
Men Vatanni ko'z deb aytsam,
Bitta mujgon, o'zbekim.

Faxr etarman, ona xalqim,
Ko'kragimni tog' qilib,
Ko'kragida tog' ko'targan
Tanti dehqon, o'zbekim.

O'zbekim deb keng jahonga
Ne uchun madh etmayin!
O'zligim bilmoqqa davrim
Berdi imkon, o'zbekim.

Men buyuk yurt o'g'lidurman,
Men bashar farzandiman,
Lekin avval senga bo'lsam
Sodiq o'g'lon, o'zbekim.

Menga Pushkin bir jahonu
Menga Bayron bir jahon,
Lek Navoiydek bobom bor,
Ko'ksim osmon, o'zbekim.

Qayga bormay, boshda do'ppim,
G'oz yurarman gerdayib,
Olam uzra nomi ketgan
O'zbekiston, o'zbekim.

Bu qasidam senga, xalqim,
Oq sutu tuz hurmati,
Erkin o'g'lingman, qabul et,
O'zbekim, jon o'zbekim.

1968

Shoir qalbi

Shoir qalbi go'yo anor,
She'ri uning sharbati.
Bo'lmas ekan she'r ahlining
O'z qalbiga shafqati.

Qorhat

Shoira qizlarga

Qor yog'ar — osmonda oqqushlar uchar,
Qor yog'ar — osmondan oq ukpar tushar.
Qor yog'ar yeru falakni to'ldirib,
Bizlar ersak issiq uyda o'ltirib,
Tark etolmay xalqimizning odatin
Yozamiz do'stlarga do'stlik qorxatin.

Qorxat asli qorday oppoq dil xati,
Oq ko'ngilning mehri, tafti, hurmati.
Oshinolik, chin vafo izhori ul,
Gohi pinhon sevgining iqrori ul.

Qor yog'ar, qorxat ila, xullas kalom,
Shoira qizlarga yo'llaymiz salom.
Sizga, ey Gulchehra qizlar, E'tibor,
Aytamiz ko'ngilda orzu neki bor.
Oy Halima ham Malika, Tursunoy,
Ey chiroyu fayzga boyu she'ri soy,
Sizga dildan eng samimiy ehtirom,
Yangi yilning tabrigi ham assalom!

Endi kelsak so'zning indallosiga,
Ya'ni qorxatning asl ma'nosiga:
Yangi yilda davra tuzmoq farz bo'lur,
Kim yutilsa, bir ziyofat qarz bo'lur.
Qorxat eltgan elchimizni tutsangiz,
Tan berurmiz, qarz bo'lurmiz, yutsangiz.

Yo'qsa o'zni katta ishga chog'langiz,
Shu bugundan pesh etakni bog'langiz.
Bermangiz Gulchehralarga zarra dam,
Biryola yuvgay mukofotlarni ham.
Yeng shimarsin Mo'tabar, Oydin bukun,
Qarz ular bulturgi dostonlar uchun.
Tutdi bir qo'lda gazet, bir qo'lda tor,
«Lirika»ni yuvmadi lek E'tibor.
Bibisora ham Sanobar qaydadir,
Bitta she'ri bir ziyofatga tatir.

Xullas, endi barchangiz hamdam bo'ling,
Xuddi «Qizlar davrasi»dek jam bo'ling.
She'r yozar chog'idagidek yoningiz,
Bunda dasturxoningiz — dostoningiz.
O'zingiz aylang tovus yanglig' xirom,
She'riyatday totli bo'lsin har taom.
Ol yanog'ingiz kabi olma, anor,
Ko'zlaringizdek charos boqsin xumor.
Eslatib ham pistalar xandoningiz,

Yuzingizdek kulsa shirmoy noningiz.
Bo'lsa bodomlar qabog'ingiz kabi,
Ham murabholar dudog'ingiz kabi.
Lag'mon eshib tola-tola sochingiz,
Misli yoyib tashlaganday sochingiz.
Sochdagi bargakdayin ko'k bodiring,
Ham xino yanglig' patinjon oldiring.
Taruзу qovunni ham serob qiling,
Xuddi oshiqnlarni tilganday tiling.
Har uzum bo'lsin duru marjon kabi,
Yo Mukarram she'r o'qib turgan labi.
Shabnamikim oy Nilufar xoliday,
Ta'mi Oydin she'rlarining boliday.
Tursa soz sizning g'azal yanglig' sharob,
Kirsа boz bizning yurak yanglig' kabob.
Ol anorni dilni ezganday ezing,
Sharbatini mayni suzganday suzing,
Barcha ne'mat bir tomonu she'r soz,
She'r birlan bizni aylang sarfaroз
O'ltirib oppoq sahardan toki shom
Bo'lmasin hech bahsu she'rxonlik tamom.
Bu kabi suhbatga chin do'stlar aro
«Qilsa arzir yuz Saida jon fido».

Men bo'lay bir necha hamrohlm bilan.
O'lmasu Abdulla, Ibrohim bilan.
Borgumiz yutsak agar albatta biz,
Yo'qsa siz izzatdayu xizmatda biz.
Shoyusuf obkashda tongdan suv tashir,
Ham Barot o'qlog' tutib yoygay xamir.
Chuchvara tukkay Muhammad cho'kkalab,
O't pudar Husniddin o'zdan o'pkalab.
Ne ajab, kuysa patir, yonsa qozon,
Tandir oldida Rauf, oshpaz — Omon.
«Hay» deb uf tortib Jamol yelpir kabob,
Topmayin chovlini Oxunjon xunob.
Shu mahalda bir latifa, shubhasiz,
To'lqinu Anvarga so'ylaydur Aziz.
Oqibat mehmonxona qoq yer bo'lur,
Katta dasturxonda yolg'iz she'r bo'lur.

Bir tomonda siz pari ruxsoralar,
Bir tomonda biz g'arib bechoralar.
Kim qoshin kuydirganu do'ppini kim,
Bosh egarmiz, yolvorarmiz sizga jim...
Xat yozildi, endi biz omad talab,
Elchining chaqqonligida hamma gap.
Yo'llasak Ma'ruf Jalilni — ancha bo'sh,
Yoki Sayyormi? U bo'lmas, laqqa go'sht...

Xo'sh, kim elchi? Ha, bilib ishning ko'zin,
Elchi qildik mulla «Mushtum»ning o'zin.
Ushlab olmoqning sira imkoni yo'q,
Chunki u ketguvchi yer poyoni yo'q...
Qor yog'ar — osmonda oqqushlar uchar,
Qor yog'ar — osmondan oq ukpar tushar.
Qor yog'ar, qorxat ila xullas kalom,
Barcha oy qizlarga yo'llaymiz salom.

1973

Hozirgi yoshlar

Qari tolga suyab
Irg'ay asoni,
Oqsoqol so'riga asta yonboshlar.
Xayoldan o'tkazar kori dunyoni:
«Eh, hozirgi yoshlar,
Hozirgi yoshlar!»

U asr tengdoshi.
Butun umr endi
Kecha ko'rgan tushday ko'zi oldida,
Yigirma yoshida amirni yengdi,
Vodiyga suv ochdi o'ttiz oltida.

Yoshligini eslar,
Uf tortar sekin.
Salgina chimrilar oq tushgan qoshlar.
«Biz ham yosh bo'lganmiz bir mahal,
Lekin
Boshqacharoq chiqdi hozirgi yoshlar».

U kolxoz tikladi,
Yangi yurt qurdi.
«Bosmachi»ga qarshi ot surdi o'ktam.
Jangu jadallarning barini ko'rdi.
Ko'rdi ochlikni ham,
Yupunlikni ham.

«Bizga xayol edi,
Tush edi faqat
To'kin dasturxonu lazzatli oshlar.
Baxti boqiy bo'lsin,
Ammo bu jannat
Qadrin bilarmikin hozirgi yoshlar!»

Ko'z oldidan o'tar qirq birinchi yil,
Maskov bo'sag'asi,
Achchiq qahraton.
Agar qulatmasa daydi o'q sabil,
Berlindan qaytardi bo'lib qahramon.

Eslar, har yon olov,
O't ichra dunyo.
Majruh gavdalaru uzilgan boshlar...
«Yurt tinch bo'lsin,
Bir gap bo'lsa mabodo,
Bardosh berarmikin
Hozirgi yoshlar!»

Uy-joy qilib berdi mana, Turg'unga,
Turmushga chiqardi Nazirasini.
Bukun esa o'ylar dorilfununga
Kirolmasdan qolgan nabirasini.

Domlasiga o'zi borsinmi sekin
Ordenlarni taqib,
Oqilni boshlab...
«Kim biladi deysiz, bo'shtobroqmikin,
Erkatoyroqmikin hozirgi yoshlar...»

Yana der:
«Bo'sh qolsak tunlar bo'lib jam

«Chordarvesh» o'qirdik qurshab tanchani.
Bular tanimaydi Huvaydoni ham,
Ertayu kech o'ylar kino, tansani.
Aqli kirarmikin bularning bir kun,
Kim biladi, qachon quyula boshlar!
Og'ir kun ko'rmadi.
Balki shuning-chun
Yengilroq o'sdimi hozirgi yoshlar!»

Tohirni halitdan tinch qo'ymas qizlar,
Yarim tunda qaytar uyga hamisha,
«Uncha bo'lmasak ham ilmda bizlar,
Ammo kuchli edi odob, andisha.
Birovning qiziga sal qarab qo'ysak,
Bizlar atalardik sho'xu beboshlar.
Ba'zi kinolarmi buzmoqda andak,
Kapalak mijozroq hozirgi yoshlar...»

To'ng'ich o'g'li u kun qizaloq ko'rgan,
Nomini Sharlotta qo'yibdi, ajab.
O'rtanchasi tog'da yurgani yurgan,
Ba'zan uch oyda bir kelmaydi yo'qlab.
Nahot otasidan bo'lsa azizroq
Qaysidir tog'dagi qandaydir toshlar...
«Bizning bordi-keldi odatdan yiroq,
Bemehrroq o'sdi hozirgi yoshlar...»

«Kiyimlar-chi...
Qiziq bularning didi.
Ola-chipor ko'ylak...
Nimasi ko'rkam?
Rost aytsam unchalik yoqmagan edi
Otalarga bizning charm kamzul ham.
Sharqiyalar aytib, bayroq ko'tarib
Ko'chaga chiqqanda o'ktam safdoshlar,
Keksalar degandi yo'ldan qaytarib:
Nega shumlik qilar hozirgi yoshlar?»

Endi bularga ham har qalay og'ir,
Zamon shitobi tez, parvozi tikka.

Kecha tili chiqqan Nargiza o'qir
Birinchi sinfda matematika.

Bizlar haftiyakdan boshlagan edik,
Bular iks bilan igrikdan boshlar.
Durust, zehni o'tkir, qadami tetik,
O'zimizga tortdi hozirgi yoshlar.

Ginasi noo'rin,
Qarilik qursin.
Bekor yurmagandir tog'larda O'ktam,
Mana, kerak bo'lsa Rustamni ko'rsin,
Bolasidan a'lo jiyani bo'lsa ham.

O'zi qotmagina, niholday xipcha
Nari borsa o'ttiz, o'ttiz bir yoshlar...
Fan doktori bo'ldi Maskovda kecha...
Balo chiqib qoldi hozirgi yoshlar.

Baxti butun bo'lsin,
Toleyi bekam.
Shularning borligi mening iqbolim».
Chol ko'z yoshin artar,
Shu payt mening ham
Kelajak yillarga uchdi xayolim.

Zamonlar keladir
Yana ajoyib.
Balki paydo bo'lar sun'iy quyoshlar.
U paytlar, kim bilsin,
Qarib-qartayib,
Munkillab qolarmiz hozirgi yoshlar.

Shunda kelajakning bog'lari aro
Biz, ya'ni keksalar suhbat qurgan chog'
So'zlarmiz:
«Qarshi deb atalgan sahro
Bizning qo'limizda bo'lgan edi bog'.

Esingdami Gazli,
Zilzilalar-chi?
Qayta shahar qurgan qardosh-qurdoshlar...

Biz yangi eradan bo'lgandik jarchi,
Nima ham ko'ribdi hozirgi yoshlar!

Qara,
Oq ko'ylakka galstuk taqib,
Agregat yonida turishar bular.
Biz ishladik qo'lni moylarga tiqib,
Endi rohatini ko'rishar bular.

Fanda inqilobni biz qildik ilk bor,
Ilk bor parvoz qilgan bizning yo'ldoshlar.
Ko'kni obod qildik,
Yerni ham gulzor.
Eh, hozirgi yoshlar, hozirgi yoshlar!»

1973

O'zbekiston

Faxriya

Yurtim,
Seni yana oldim qalamga
To'ying, shodiyonang bahona bo'lib.
Yana kelib qo'nding tonggi misramga
Falak nisor etgan durdona bo'lib.
Iqbol peshonamga bitgan oshyonim —
O'zbekistonim.

Toleyim bor ekan,
Senga hamnafas,
Otashin quyoshing bilan yo'g'rildim.
Yuz yil avval emas, yuz yil so'ng emas,
Tug'yonli asrda senda tug'ildim.
Gullar sochding men ilk bosgan qadamga
Bag'ring menga nurli koshona bo'lib.
Jahon ichra mening tengsiz jahonim —
O'zbekistonim.

Maqsad manzilida dovon oshgan dam
Yo'lchi ham bir to'xtab olgandek nafas,

Marzagacha yetib borgan dehqon ham
Ortga boqib bir zum qilgandek havas,
Ellik bahor ko'rib hayot bog'ida
Umr kamoliga qo'l cho'zib inson,
Oltin darvozani chertgan chog'ida
Sarhisob qiladi umrin begumon.
Bosib o'tgan yo'li shunda odamga
Tuyuladi ming bir pog'ona bo'lib.
Ming bir dovon oshgan alp pahlavonim —
O'zbekistonim.

Asli ellik emas, ellik ming yoshing,
Kechmishing tarixlar nariyog'ida.
To'marisdek ona Kayxisrav boshin
Qon to'la sanochga solgan chog'ida,
Spitomen kamon tutib dastida
Maroqandni saqlab turganda uzoq,
Yovni adashtirib o'lim dashtida
Ko'krak ochib qah-qah urganda Shiroq,
Hali o'zbek emas, lekin olamga
Mashhur eding soqu sug'd ona bo'lib.
Iskandarni majruh etgan kamonim —
O'zbekistonim.

Vahshat vodiysida kechdi asrlar
Aljabr ustodin tuqquncha yering.
Ilming yuksalguncha Beruniy qadar,
To Alisher qadar yetguncha she'ring,
Hayratga solguncha fan olamini
Farg'oniy chiqargan aniq hisoblar...
Tebransa ne ajab Toshkent zamini,
Bu yerga ko'milgan milliard kitoblar.
Farangu hindu chin, iroq, ajamga
Taralding Alqonun, Saydona bo'lib.
Buyuklar tan bergan buyuk dostonim —
O'zbekistonim.

Ming bora tiklanding, ming bor qulading,
Yovlar qamchisidan chekkanda ozor —
Alpomish singari o'g'lon tilading,

Tilading Go'ro'g'li singari sardor.
Sen ham gullar terib umid bog'idan
Tole orzusida tuzding alyorlar.
Ammo bo'talaring qo'ng'irog'idan
Cho'llarda to'kilib qoldi oh-zorlar.
Umring egiz bo'ldi anduh alamga
Orzularing bari afsona bo'lib.
Barchinning ko'ksida qolgan armonim —
O'zbekistonim.

Zamin dardicha bor bir ayol dardi,
Oyning dog'i balki uning dog'idan.
Faryod olov bo'lsa olam yonardi
Sharqlik juvonlarning chekkan ohidan.
Zebuniso o'tdi tanho va mahzun
Boshida o't bo'lib malika toji.
Tun bo'lib yoyilar Qo'qonda har kun
Nodirabegimning qirqilgan sochi.
Ayol!
To'rt devorda ko'milding g'amga,
G'azallarda faqat jonona bo'lib.
Barnodek, Anbardek dili so'zonim —
O'zbekistonim.

Hali sokin tuman chulg'ab bag'rini
G'aflat uyqusida yotardi olam,
Umid qalamida «Quyosh shahri»ni
Hali yozmagandi Kampanella ham.
Najot ko'zi bilan mag'ribga boqib,
Ko'hna Xorazmdan yo'l olgan karvon
Yovmut sahrosida oylar uloqib
Maskov tuprog'iga yetganda omon,
O'zbeklar to'qigan shohi, gilamga
Boqqanda zariflar hayrona bo'lib,
Do'stlik ipak yo'li ochgan karvonim —
O'zbekistonim.

Darvozaning ochding ma'rifat, fanga,
Senga oshno bo'ldi Pushkin kabi zot.
Lekin baxtu iqbol kulmadi sanga,

Hali olis edi sen kutgan najot.
Erk deya atalgan tabarruk shamga
Intilding bir umr parvona bo'lib.
Parvonadek kuyib o'rtangan jonim —
O'zbekistonim.

Dardingni kuyladi anhorlaringda
G'ijirlab aylangan ko'hna charxpalak,
San'ating munaqqash devorlaringda,
Lekin obodliging bo'ldi Hapalak.
Parilaring tutqun bo'lib haramga,
Ulug' shoirlaring devona bo'lib,
Taqdir sahrosida zoru sarsonim —
O'zbekistonim...

Ko'p ellarni kezdim, ko'p yurtlar ko'rdim,
Bir-biridan go'zal, bir-biridan soz.
Lekin Sharqda mash'al charog'on yurtim
Olamda tengi yo'q, o'lkadur mumtoz.
Bunda do'stlik kuyin aytur har chechak,
Bunda baxtni qilur har bulbul navo.
Dillardagi azal bashariy tilak —
Buyuk birodarlik gulshani aro
Osiyoxon degan suluv sanamga
Oltin sepu atlas so'zona bo'lib
Kulib turgan, yorug', munis makonim —
O'zbekistonim.

Yiroqdan eshitib surnay ovozin
Ko'chaga yugurgan bola singari,
Men ham qo'lga olib sibizg'a sozim
To'yingga shosharman eldan ilgari.
Tilak shu — qo'shig'im katta bayramga
Yetib borsa kichik to'yona bo'lib.
Mening ham qolmasdi dilda armonim,
O'lkam, onajonim, yuragim, jonim —
O'zbekistonim.

1974

* * *

Ey, men bilgan,
Bilmagan dunyo!
Zarradan to Koinot qadar,
Ham ayon, ham tilsimot qadar
Fikrat bovar qilmagan dunyo!
Men ham sendan
Bir qism bo'lib,
His, idrok, jon va jism bo'lib
Yaralibman, yashamoqdaman.
Oqar ekan tiriklik — daryo
Hayot bilan goh to'liqin aro,
Xayol bilan goh qirg'oqdaman.
Kuylamoqning shavqi ham — yashash,
O'ylamoqning zavqi ham — yashash,
Qay biri chin hayot — bilmasman,
Elga ochdim quchoqlarimni,
Elga sochdim xush choqlarimni,
Lekin tungi qiynoqlarimni
Hech kimsaga hadya qilmasman.

1976

Tirik sayyoralar

Derazamdan tushgan tola nur
Somon yo'li kabi tovlanur.

Hayratki, shu tola nur aro
Ming-ming zarra kezar ovora.
Har bir zarra balki bir dunyo,
Ehtimol, bir o'zga sayyora...

Ko'rib ne bor o'z taqdirida,
Balki yashar ming-ming koinot.
Hech ajabmas, shular birida
Mavjud bo'lsa taraqqiy, hayot.

Inson-chi, do'st topmoqni o'ylab
Tanholikdan bu tor dunyoda,
Yulduzlarga kemalar yo'llab,
Jonzot izlar cheksiz fazoda.

Bordek yiroq turkumlar aro
O'zi kabi oqil bir xilqat,
Inson ko'kka boqar doimo,
Tintuv qilar osmonni faqat.

Ammo bilmas, qilmas tasavvur,
Xayoliga keltirmas bashar,
O'zga jonzot balki bo'lib nur,
Ohang bo'lib u bilan yashar.

O'zga hayot balki sokin tun
Qamishlarning shovullashidir.
Tongotarda balki lolagun
Shafaqlarning lovullashidir.

Hojat emas ko'kdan izlamoq,
Kemalarni qilmoq ovora.
Odamzodning o'z qalbidayoq
Yashayotir o'zga sayyora.

Fazolarning qay burchagiga
Fikri bilan yetadir inson,
Ammo ne bor o'z yuragida —
Bilmay o'tib ketadir inson.

U yashaydi tilsimlar aro,
Har kashfiyot yangi marradir.
Uning o'zi sirli bir dunyo,
Dunyo esa faqat zarradir.

Derazamdan tushgan tola nur
Somon yo'li kabi tovlanur.

1976

Ota tilagi

Taajjub, deyman-u yoqa tutaman,
Murg'ak bola edim kecha-ku o'zim.
Bugun qarabsizki, men ham otaman,
Mening ham o'g'lim bor — umid yulduzim.

Qalbim urmakda shu mushtdek yurakda,
Yangidan o'smakda kichkina jismim.
Demakki, hayotim davom etmakda,
Demakki, olamda qolmakda ismim.

Nima bor men uchun uningdek aziz? —
Arzir bir so'ziga jon fido etsam.
Jahonda nimaki bo'lsa eng laziz,
Faqat uning uchun muhayyo etsam.

Kiprigiga zarra qo'nmasa qayg'u,
Baxti komil bo'lsa, toleyi bekam.
Ko'rsa men ko'rmagan shodliklarni u,
Yetsa men yetmagan niyatlarga ham.

Ammo u bir umr bo'lmay oshino
Tiriklik deganning zahmat, dardiga,
Bila olarmikin nadir bu dunyo,
Yeta olarmikin hayot qadriga?!

O'g'lim, ey, umidim bog'ida nihol,
Yorug' peshonangni o'pib silayman.
Shu aziz boshingga eng nurli xayol,
Qalbingga eng toza hislar tilayman.

Ulg'ayarsan, yigit bo'larsan bir kun,
Ortda qolar yoshlik, o'yin, ermaklar.
Olamni yelkada ko'tarmoq uchun
Dunyoga keladi, bilsang, erkaklar.

Ertangi kuningni o'ylab shu paytdan
Borliqni quvonchim bilan o'rayman.
Seni menga bergan bu tabiatdan
Sening yuragingga olov so'rayman.

Mayli, mushkul bo'lsin sen tanlagan yo'l,
Tole ham, mayliga, kelmasin oson.
Faqat odam qadrin bilar odam bo'l,
Bo'l inson dardini bilguvchi inson!..

1976

Ona tilim o'lmaydi

Notiq dedi:
«Taqdir shul,
Bu jahoniy iroda.
Tillar yo'qolur butkul,
Bir til qolur dunyoda».

«Ey voiz, pastga tushgin,
Bu gap chiqdi qayerdan!»
Navoiy bilan Pushkin
Turib keldi qabrdan.

Kim darg'azab,
Kim hayron,
Chiqib keldilar qator:
Dante,
Shiller
va Bayron,
Firdavsiy,
Balzak,
Tagor.
«Va'zingni qo'y, birodar,
Sen aytganing bo'lmaydi».
Barcha dedi barobar:
«Ona tilim o'lmaydi».

— Hey, bu qanday aqida! —
Qo'lida tabarruk jom,
Go'zal forsiy haqida
Ruboiy aytdi Xayyom.

Ehtirosli, otashdil
Beranje so'rdi nolon:
— Nahotki, farangi til
Yo'qolgusi bir zamon!

Neruda, Lorka turdi
Servantesning yoniga:

— Kim qasd etib tig' urdi
Ona tilim joniga!

Fuzuliy yondi:

— Ozar

Tili guldek so'lmaydi.

Barcha dedi barobar:

«Ona tilim o'lmaydi».

Kamalakdek rango-rang
Bo'lsin deb san'at, tillar,
Asrlarcha qildik jang,
Armon qildik ming yillar.

Beqadr bo'lsa, nahot,
Tillardagi tarovat!
Yo'qoldi bu kun, hayhot,
Qabrlarda halovat!

«Faust» yondi gurillab,
«Xamsa» o'tga tutashdi.
Bir sado jahon bo'ylab
Taraldi, tog'lar oshdi.

Bu sado yangrar hamon,
Sira ado bo'lmaydi.
Olam aytar:
Hech qachon
Ona tilim o'lmaydi!

1976

«Oqsoqol»

Uni hamma birdek
Derdi «oqsoqol»,
Garchi soch-soqoli oq emas edi,
Ilmu donishda ham toq emas edi,
Biroq hamma birdek
derdi «oqsoqol».

Chog'roq bo'yli edi
«Oqsoqol» o'zi,
Qaddida salobat bor edi lekin.
Yonib turar edi ko'kimtir ko'zi,
Sokin gapirardi,
Yurardi sekin.

Uni hurmat qilar edi odamlar,
(Agar hurmat bo'lsa qo'rquvning oti),
Undan najot tilar edi odamlar,
Elga kerak edi uning «najoti».

Chunki «oqsoqol»da noyob fazilat —
Qahr,
 beshafqatlik,
 zug'um bor edi.

U payt zarur edi
 balki bu xislat,
El qattiqqo'llikka balki zor edi.
Urushning oxirgi yilin eslayman,
Biz sahardan nonga navbat olardik.
Bola edik,
Uyqu elitib ba'zan,
Devorga suyanib uxlab qolardik.

Do'kon ochilganda
Jon kirib bizga,
Yelkalardan oshib intilar edik.
Navbat uzun edi,
 bo'yimiz qisqa,

Non kam,
Xaloyiq ko'p,
Ne qilar edik?
Shunda yetib kelar edi «oqsoqol»,
Qo'lida o'ynatib tol xivichini.
Tartibga kelardi odamlar darhol,
O'shanda bilganman
Qo'rquv kuchini.

Bolalar,
 kattalar jim, itoatkor,

Bir safga tizilib turar edi tek.
«Oqsoqol»
tartibni ko'rardi bir bor,
Aylanardi parad qabul qilgandek.

So'ngra,
Qo'llarini tiqib kamarga,
Qora olomondan qilgandek hazar,
Tepalikda turib

pastdagilarga
G'azab, nafrat bilan
tashlardi nazar.

U xipchini bilan
Qilsa ishora,
Navbat bilan har kim oladi haqin.
Safdan chiqsa bormi biror bechora,
Beizn do'konga kelsami yaqin,
Och qolishi tayin edi o'sha kun,
«Oqsoqol» ayovsiz edi shu qadar.
Men hayron bo'lardim,
Ajab, ne uchun
Shu mushuk ko'zlikka tobe odamlar?
Axir ularniki

do'kondagi non,
Tartib bilan borib olsalar netar?

«Oqsoqol»ga emas,
Bosabru imon
Qalblariga quloq solsalar netar?

U zamon ochligu muhtojlik dardi
Qilib qo'ygan edi qomatlarni dol.
Balki shuning uchun

ular chidardi,
Balki zarur edi u payt «oqsoqol».

Mana yillar o'tdi
«Oqsoqol» bugun
Avvalgi izzatu mavqeda emas.
Qarib soch-soqoli oqargan butun,
Lekin bugun hech kim «oqsoqol» demas.

U ba'zan kechqurun,
Ba'zan ertalab
Non do'kon yonida o'ltirar uzoq.
O'tgan-ketganlarning ortidan qarab,
Ko'kimtir ko'zlari mo'ltirar uzoq.
Bu nigoh ma'nosi
Elga noayon,
Balki shukronadir,
pokdir tilagi.

Balki
Xotiriga kelar u zamon,
O'sha tol xivichni qo'msar yuragi.

Ko'ziga ko'rinar
Balki shu tobda
Navbat kutib turgan ojiz bandalar.

U mudrab o'ltirar,
Yangrar atrofda
Shodon qo'shiqlaru
Quvnoq xandalar.

1977

* * *

Agar do'sting bilan
teng ko'rsang baham,
Shodlik teng ko'payar,
teng bo'linar g'am.

* * *

So'zlaganda oqil
dilingga jo qil,
Ammo o'z dardingga
o'zing davo qil.

Arslon o'rgatuvchi

Vankuver tomoshagohida

Panjarada
Olov halqa yonar charsillab,
Arslon uzra —
Uzun qamchi o'ynar qarsillab.
Yoldor yirtqich
Egasiga sovuq tikilar,
Na'rasidan
Tomoshagoh larzaga kelar:
— Ojiz odam!!
Bas, boshimda qamchi o'ynatma!
Ko'ksimdagi
Uxlab yotgan hisni qo'zg'atma!
Haddan oshma!
O'z boshingga o'zing yetarsan,
Etlaringni
Nimta-nimta qilsam, netarsan!
Ko'rib qo'y,
Bu panjalarni siynangga solsam,
Shuhratparast yuragingni
Sug'urib olsam,
Yiltiragan badaningdan
Tirqiratsam qon,
Najot bermas —
Senga qarsak chalgan olomon.
Bor!
Olovdan sakramasman!
Bo'lma ovora!
Bilasanmi —
Men kimmanu sen kim, bechora!

Men — to'qaylar shohi,
Tutqun bo'lsam-da agar,
Sen-chi, — no'noq masxaraboz,
Pastkash bozingar!
Shuhratga mast,

O'z holini bilmagan basir!
Nomard taqdir
Meni qildi qo'lingga asir!
Halol kuchga zavol bergan,
Hiylaga qudrat, —
Meni bandi qafas etgan
Dunyoga la'nat!
Ey, ivishiq ko'kragini
Zavq bilan kerib,
Sher zotini masxaraboz
Qo'liga berib,
Mard holidan
Rohat olib qilgan xandalar,
La'nat sizga,
Tomoshabin, gumroh bandalar!

Panjarada
Olov halqa yonar charsillab.
Arslon uzra —
Uzun qamchi o'ynar qarsillab.
Yoldor yirtqich
Egasiga sovuq tikilar —
O'rgatuvchi
Asta uning yoniga kelar.
Qulog'iga bir so'z aytar
Egib qomatin:
— Nodon dema,
Men bilaman arslon qudratin.
Sen to'qaylar podshosisan,
Men — bechoraman,
Hamla qilsang,
Bir lahzada tilka-poraman.
Falak ishi —
Bizning bunday turfa sheriklik,
Menga qamchi,
Senga qafas berdi tiriklik.

Sen tantisan,
Nazdingda men quv, dog'uliman.
Asli o'sha tiriklikning

Sendek quliman.
Menga nedir olomonning
Olqish, qarsagi,
Sening har bir o'tli na'rang —
Menga tarsaki.
Netay, men ham egalik qul,
Boshda xo'jam bor,
G'azab qilsa,
Ko'zlarimga dunyo bo'lar tor.
Menda-ku dard, iste'dod bor,
Bor andak sehr,
Hech bo'lmasa, hayvonotga
Shafqatu mehr.
Tomoshagoh egasi kim
Mening qoshimda!
Ammo qamchi o'ynatar u
Doim boshimda.
Holatimni tushun,
Isyon qilma, birodar,
Charx oldida ikkimiz ham
Asli barobar.
Garchi arslon o'ynataman,
Garchi men — Odam,
Oy so'ngida qand kutaman
Xo'jamdan men ham.
Goh jonimdan o'tsa zulm,
Na'ra tortaman,
Lekin bundan
Faqat boshga balo ortaman.
Bu so'zlarga chidolmadi,
To'lg'ondi arslon:
— Bo'ldi, bas qil!
Yuragimni qon qilma, inson!
O't olsin bu charxi falak
Rizqu ro'zini!..

Arslon olov chamberakka
Otdi o'zini.

1977

Sirdaryo o'lani

Osmono'par Tiyonshonning qorisan,
Ko'hna Jayhun yo'ldoshisan, yorisan.
Ona vodiy hayotisan, borisan,
Quvonchisan, alamisan, zorisan,
Oqib turgin, qurib qolma, onajon.

Tuman asr kechmishidan daraksan,
Yurtim uchun ham tomir, ham yuraksan,
Nega bukun bemadorsan, halaksan?
Sen bizlarga axir mangu keraksan,
Oqib turgin, qurib qolma, onajon.

Sen borsanki, keng vohada hayot bor,
Demak, yurtning labida bol, nabot bor,
Senda elim sabotidek sabot bor,
Sobit bo'lgin, Ona soydan najot bor,
Oqib turgin, qurib qolma, onajon.

Sen paxtasan, olma, anor va nursan,
O'zbek uchun surursan ham g'urursan.
O'zni yerga tomchi-tomchi berursan,
Daryo emas, xalq timsoli erursan,
Oqib turgin, qurib qolma, onajon.

Men bolangman, nido bo'lay sen uchun,
Bir jilg'adek davo bo'lay sen uchun,
Kerak bo'lsa, fido bo'lay sen uchun,
Mayliga, men ado bo'lay sen uchun,
Oqib turgin, qurib qolma, onajon.

1979

Shoirlik

Ustoz Mirtemirni izlab

Shoirlik — bu shirin jondan kechmakdir,
Limmo-lim fidolik mayin ichmakdir.
Shoirlik — jigarni ming pora etmak,
Bag'ir qoni bilan satrlar bitmak.
O'zni tomchi-tomchi, zarra va zarra
Elga qurbon qilib, eng so'nggi karra
Armon bilan demak: «Ey ona yurtim,
Kechir, xizimatingni qilolmay o'tdim».
Shundoq yashar asli sohibi ijod,
Shundoq yashab o'tdi Mirtemir ustod.

1980

* * *

Sovuq chordoqlarda quvg'indi, shumshuk,
Och o'lim vahmida yashab har nafas,
Taqdirdan noliydi egasiz mushuk,
Xonaki qavmiga qiladi havas.

Bu esa uxlarkan tinch va beparvo,
Bosh qo'yib bekaning issiq to'shiga,
Xayolida kezar bo'g'otlar aro,
Yovvoyi ozodlik kirar tushiga.

1980

Devonayi haqgo'y

Yana sening to'ning yelkangda,
Sig'may qolding bu dargohga ham.
Labda achchiq qimtilgan handa,
Tashqariga qo'yan qadam.
Tuqqaningga yoqmas to'g'ri gap,
Shuni anglab yetmagan bo'lsang,
Bu dunyoda shuncha yil yashab
Diplomatlik atalgan adab, —

Ko'chasidan o'tmagan bo'lsang, —
Ko'ngildagi gapingni qachon
Kimga qanday so'zlamog kerak,
O'zingga ne foyda, ne ziyon.
Anglamagan bo'lsang gar, demak —
Ayb o'zingda,
Toki bu dunyo
Tili burrolarga yor ekan,
Manmanlikdek tuzalmas savdo
Odamzod boshida bor ekan,
Toki boshliq zoti ekan haq,
Gapi gapu, so'zi so'z ekan,
To'rdagilar hokimi mutlaq
Pastdagilar yumuq ko'z ekan, —
Peshonangga bitilgan attang,
Yengilmoq bor doimo jangda.
Mudom sening qo'lingda pattang,
Mudom sening to'ning yelkangda.

1987

Orol

— Orol o'layotir,
Sir o'layotir,
O'layotir zahardan tuproq.
Shoir bunga qarshi ne qilayotir?
— Shoir daftarida kattakon so'roq.

U faqat qichqirar:
Bundoq bo'lmaydi.
Alam bilan yosh to'kar, biroq
Uning ko'zyoshidan Orol to'lmaydi,
Faqatgina yer bo'lar sho'rroq...

1987

Dorilfununga

Yana yigirmaga — yigit yoshimga
Uzoq yillar o'tib qaytgan bu kunim,
Ta'zim qilib keldim sening qoshingga
Azizim, munisim, dorilfununim.

Nedirsan? Olisga undagan sado,
Yo olis yillardan chorlagan unim.
Seni sog'inaman va tirikman to
Senga intilaman, dorilfununim.

Bolangman, bor hali o'zingga hamdam
Sho'xlik, erkalagim, andek jununim.
Kim bo'lsam, ne bo'lsam va qayda bo'lsam,
Sen meni tergap tur, dorilfununim.

Hayot beshafqatdir, yashash murakkab,
Yozolmay goh dilga cho'kkan tugunim,
Iltijo qilarman, bedor yurakka
Qudrat ber, yoshligim — dorilfununim.

Hali bu olamga savolim ko'pdir,
Xayolim qushida yo'q lahza qo'nim.
Yana shamchirog'ing kerak bo'libdir,
Yo'limni yoritgin, dorilfununim.

She'ru ishq, baxt, quvonch — dunyo biri kam,
Faqat e'tiqodim — tanho butunim.
Qalbim tubidagi eng yorug' nuqtam —
Senga talpinaman, dorilfununim.

Ezgulik sog'inchi o'rtab ko'nglimni
Bosh urib qoshingga kelgan bu kunim —
Sidqimni qabul et, tark etma meni,
Azizim, munisim, dorilfununim.

1987

Jaholat to'g'risida rivoyat

Alqissakim,
Juda qadim
Jaholatlik zamonda
Bir donishmand
 ulug' hakim
O'tgan ekan jahonda.
U kun bo'yi
Giyoh terib
Kezib tog'u biyobon,
Odamlarga shifo berib
Yashar ekan
Shodumon.
Unga
 ming bir mushkul dardning
Ayon bo'lib davosi,
Bora-bora
Odamlarning
Ortaverdi ixlosi.
Tabobatga
Qalban,
 ruhan
Fido qilib o'zini,
Hatto bir kun
Nashtar bilan
Ochmish
 ko'rning ko'zini.
Rivoj topmish
Sohib hikmat,
Donish,
Mehnat madadkor.
Ammo
Qayda bo'lsa shuhrat,
Yonboshida
Hasad bor.
Duoxonlar,
 parixonlar,
O'quvchilar chilyosin...

Xullas,
Yurtda bor nodonlar
Boshladilar ig'vosin.
Tinmay
Kechayu kunduzi
Topib kitob so'zidan,
Dedilar:
«Dard bergan —
O'zi!
Davosi ham
O'zidan!
Bandasiga bermak doru
Yaratganga isyondir.
Demak,
Hakim ishi makru
Uning o'zi
Shaytondir».
Bu so'zlarni
 chin, deb bildi
Nodon,
 johil olomon.
Donishmandni sazo qildi,
Kaltakladi
Beomon.
Cho'g' temirda
Ko'ksin dog'lab,
Dorga osmoq bo'ldilar.
So'ng bo'yniga xarsang bog'lab
Suvga bosmoq bo'ldilar.
Keyin
Suvni,
 arqonni ham
Hayf bildilar
 «shayton»ga,
«Yoqing, — dedi
Eng bosh hakam, —
Olib chiqib maydonga!»
Keng maydonga
Ko'mib ustun,

Bog'ladilar hakimni.
So'ng temirni o'tga qo'yib,
Dog'ladilar hakimni.
Buyurdilar:
«Yoqing shitob,
Azozilning oshnasin.
Kerak bo'lsa
Kimga savob,
Cho'p keltirib tashlasin».
Savob uchun
Birov o'tin,
Birov tashlar dona xas.
Hakim boshin baland tutib
Johil elga qaramas.
Bir payt
Gulxan sari bir chol
Asta kela boshladi.
Quchog'ida
Bir bog' poxol,
G'aram uzra tashladi.
Dedi:
«Asli tug'ilgandan
Basir edim men o'zim.
Sen
 joduning tig'i bilan
Ochib qo'yding
 ko'r ko'zim.
Tangri bilib
Yaratgan ko'r,
Davo qilding ne uchun?
Oxirat men —
 manglayi sho'r —
Nima deyman
So'roq kun?
Haq yo'lidan ozgan odam,
Ko'zim ochib,
 ne berding?
Meni bir yo'l
U dunyo
 ham —

Bu dunyodan ayirding.
Ko'rligimda
Bu olamni
Tasavvurda ko'rardim.
Dunyodagi bor odamni
Mushfiq bilib yurardim.
Shafqat ila
Kim nonu
 kim
Chaqa tashlab ketardi.
Men ham
 shunga ko'ngan edim,
Menga shu ham yetardi.
Qomim to'ysa —
Saodatim,
Yo'q tuman xil tilaklar.
Hamsuhbatim,
Ham ulfatim
Jajji shirin go'daklar...
O'ylar edim dunyoda bor
Musaffolik,
Soddalik.
Ko'zim ochib
Ko'rdim ilk bor
Berahmlik,
Soxtalik.
O'g'riligu fahshni ko'rib
Jim yurarkan odamlar.
O'z do'stiga
Kulib turib,
Tig' urarkan odamlar.
Bir yonda aysh
Ko'kka chirmash.
Bir yonda,
 boq,
 ohu voh...
Bukun mening
 ko'nglimda g'ash,
Imonimda —
 ishtiboh.

Derdim:
Yurtni bir bor ko'rsam.
Ko'rdim.
Orzum to'q endi.
Yo'lda yotgan
xaschalik ham
E'tiborim yo'q endi.
Bu dunyodan
to'ydim oxir,
Ado bo'lsam mayliga.
Yo qaytadan,
O'sha basir,
Gado bo'lsam mayliga!»
Bu so'zlarni
Eshitdi-yu
Faryod qildi donishmand.
«Yoqing, —
deya so'radi u, —
Olov bo'lsin sarbaland.
Tezroq ketay
Bu dunyodan,
Hech toqatim qolmadi.
Mendan
shifo oldi
odam,
Olam —
shifo olmadi.
Xurofotning zahri tekkan
Nodon,
johil,
gumrohlar —
Davosiga ojiz ekan
Men kashf etgan giyohlar.
Ko'r ko'zlarga
Mehrgiyodek
Nur baxsh etdi
nashtarim.
Qalblar ko'zin
ochmoqqa
lek

Kamlik qildi
Hunarim.
Odamlarga
 men yaxshilik —
Qilmoq bo'ldim,
Netayin,
Manglayda
 shu ekan
 bitik,
Yoqing,
Kuyib ketayin!»

O't qo'ydilar.
Yondi gulxan.
Qaro bo'ldi
 samovot.
Jaholatning
 hukmi bilan
Qurbon bo'ldi
Buyuk zot.
Gulxan yondi
Ko'kka o'rlab.
Cho'g'i har yon
 sochildi.
Shu olovdan
Elning,
 ajab,
Aql ko'zi
 ochildi.
O'kindilar,
Aza tutib
Yig'ladilar,
 kuydilar.
Donishmandga
Yillar o'tib
Oltin haykal
 qo'ydilar.
E, voh,
Olim ko'zi bilan

Ko'rsaydi bu
hurmatni...
Ammo
Hakim o'zi bilan
Olib ketdi
hikmatni.
Qo'y, ey ko'nglim,
Sen ul zamon
Dahshatin
kam o'ylagin.
Senga nasib bo'lgan davron
Sozin olib
Kuylagin.
Shukronalik
mayin ichib
Yayrab qolgin
bir nafas.
Bu olamdan
Bir kun kechib
Ketuvchi bir
biz emas.
Kel, ey ko'nglim,
Kel, muhabbat,
She'r zavqiga
qonaylik.
O'tda yonish bo'lsa,
faqat —
Ishq o'tida
yonaylik.
Faqat
Bizga g'amu qadar,
Qayg'u-hasrat
yot bo'lsin.
To
biz uchun
jon berganlar —
Ruhi mangu
shod bo'lsin.

Jumadan qolgan odam

(Bid'at tarixidan bir lavha)

Bu sizga bir hikoya:
Chorak asr muqaddam
O'sal yotar edi chol,
So'nar edi misli sham.
Uzoq-yaqin qarindosh
Atrofida bo'lib jam
Vido aytar edilar
Qadlar egik, ko'zlar nam.

Kecha soppa-sog' edi,
Ey, voh, qismat ekan-da,
Ajral bo'g'ib turibdi
Og'zi oshga yetganda.
Falak irodasi shu,
Ne qilsin sho'rlik banda,
Azal taqdir buyrug'i
Barobar hammaga ham.

Ha, o'lmoq bor muhaqqaq
Har kimsaning boshida,
Lekin o'lmoq savob-ku,
Payg'ambarning yoshida.
Yana erta juma kun
Turgay mehrob qoshida,
Yaxshi kundan buyurdi,
Mo'min edi va hotam.

Kampir taxmonni ochdi,
Kafanlikni oldilar.
Erkaklarga to'n, belbog'
Axtarishib qoldilar.
Katta uy o'rtasiga
O'likka joy soldilar.
Hovli-yu eshik oldi
Supurildi zap shinam.

Qori pochcha keldilar
Darbozadan yo'talib.
Yuvg'uchi hozir bo'ldi
Bo'yrasini ko'tarib.
Amma samovar qo'ydi
Tarashani tutatib.
Tongdan tumonat kelsa
Shoshib qolmaslik — shu g'am.

Qaznoqdan chiqarildi
Ma'rakaning uni ham,
Tugib qo'yildi tayyor
Domlaning tuguni ham.
Belgilandi hattoki
Yigirmaning kuni ham,
Hamma narsa badastir,
Faqat bitta o'lik kam.

«Puxovoy» ro'mol bilan
Xola bog'ladi belin,
Xabarlashga boshladi
Har kim o'z urug' — elin.
Janjallashib ham oldi
O'rtada ikki kelin,
Alam o'tgan hiqillab
Yig'lar edi: «Voy, dodam!»

Hech kimsaning ishi yo'q
Dardga muhtalo bilan.
Qizlar sandiq bilan band,
Kampirlar duo bilan.
Bir vaqt tunni uyg'otib
Chinqiriq sado bilan
Chiroqlari pirpirab
Kelib qoldi «Tez yordam».

Hamma suyunib ketdi,
Deb o'ylarsiz, bor bo'ling!
Yon qo'shni Jannat bibi
Doktoring to'sdi yo'lin,

To'ng'ich qiz dono bo'lib,
Tutdi hamshira qo'lin:
«Igna sanchib qiynamang,
Tayyor yotibdi otam.

U doim oz og'rig'u
Oson o'lim tilardi.
Bobomdek oltmish uchda
O'lishini bilardi.
Ayniqsa, juma kunni
Ko'p iltijo qilardi,
Murodi hosil bo'ldi,
Oyoq cho'zsin xotirjam».

Doktor quloq solmadi,
Bo'sh kelmadi hamshira,
Bo'sh kelmadi, nol uchga
Xabar qilgan nabira.
Lipillab turgan u sham
Shu tun bo'lmadi tiyra,
O'sal ko'zini ochdi,
Jumadan qoldi motam.

Ertalab ikki o'g'il
Ishga ketdi so'ppayib,
Devor tagida tobut
Qolaberdi do'ppayib,
Yurgancha yuraberdi
Ikki kelin xurpayib.
Janjalning, boisini
Ikkov ham aytmas, dam-dam.

Yana ko'p juma o'tdi,
Oy-yillar o'tdi qator,
Sakson sakkizga bordi
O'ldiga chiqqan bemor.
Har yoshiga bir tanob
Bog' o'stirdi mevazor.
Yuzni mo'ljallab turar
Jumadan qolgan odam.

Nabiralar soni ham
Yuzga bordi, chamasi,
Har juma chol uyida
Yig'iladi hammasi.
Kelar doktorni quvgan
Xonadonning ammasi,
Kulib-kulib eslashar,
Har juma bo'lar bayram.

Mana, yashab yuripti,
Umri ekan ziyoda.
Uni o'ldi deganlar
Ko'plari yo'q dunyoda.
Jannat bibi jannatga
Ketdi bultur javzoda,
Qorini o'n yil burun
Olib ketgan zotiljam.

Baqar yili tuproqqa
Qo'yan go'rkov do'stini,
Chol o'zi to'g'rab bergan
Yil oshining go'shtini.
Qadrdondan yodgor deb
O'z qabrining ustini
Gul qilib, tiklab qo'yan
Kichkina sag'ana ham.

Chol aytar, oltmish uch ne,
Sakson sakkiz nimadir,
Umr go'yo daryodan
Suzib o'tgan kemadir.
U sohilga yetmoq bor
Payshanbadir, jumadir,
Lekin jadallashtirish
Bunda ne kerak, bo'tam?

Shoshmanglar, u dunyoni
Ko'rdim, uncha yoqmadi,
Ravzayi Firdavs ichra
Obi kavsar oqmadi.

Kampirim durust ekan,
Hurlar menga boqmadi.
Arazladim, qaytvordim
To'g'ri kelmadi Eram.

Bolalarim, so'nggi gap:
«Yotib qolsang, yot kuymas,
Bir-birovni avaylang,
O'lgan bilan yer to'ymas.
Endi siz o'ltiringlar,
Men havoda bir nafas...»
Deru o'rnidan turib
Bog' sari qo'yar qadam.

1987

Eski hammom, eski tos

Qayta qurish xususida
Olam uzra jarangos,
Davralarda bahslar qizg'in,
Bahslarda zo'r ehtiros.
Ko'p orzular topdi hayot
Ko'zgisida in'ikos,
Ammo bizning tomonlarda
Hali faqat gap, xolos,
Hayot esa o'sha-o'sha:
Eski hammom, eski tos.

Avvalgidek yil boshida
Yil rejasin bichamiz,
«Bajaramiz» qasamini
Yaxna choydek ichamiz.
So'ng o'n bir oy sustkash umr
Daryosida kechamiz,
Yil so'ngida: «hayda-hayda»,
Oy so'ngida: «bos-ha, bos!»
Qoidamiz o'sha-o'sha:
Eski hammom, eski tos.

Biz majlissiz yasholmaymiz,
Majlisga ham plan bor,
Majlis dema — janggoh! Seni
Piypalashga gilam bor,
Sodda bo'lma, u gilamga
Tayyorgarlik bilan bor,
Chap berishni, chalishni bil,
Javob zarbin o'rgan xos.
Ishni bo'lsa... ish ma'lum gap:
Eski hammom, eski tos.

Kimga kerak tashabbuskor,
Bilguvchi yo'l-yo'riqni?!
Tashabbuskor ishni buzar
Kutmay yuksak buyruqni.
Bizlar esak — kamtar odam,
Qovushtirib qulluqni,
Jim turamiz, bilamiz-da,
Jim turishga bor asos.
Bizga asli juda maqbul
Eski hammom, eski tos.

Qanday asos, dersiz. Rahbar
So'zi doim so'z bo'lgan,
Unga «qarshi», «betaraf» yo'q,
Ovoz doim yuz bo'lgan,
U istasa ikki besh qirq,
Ikki o'n to'qqiz bo'lgan,
Tarixga boq, rahbaringni
Shahanshohga qil qiyos,
A'yonlaru gumashtalar...
Eski hammom, eski tos.

Kimki baland uchmoq bo'lsa,
Bo'lsa ham u otamiz,
Aslo parvoz qildirmaymiz,
Oyog'idan tortamiz.
Amallaymiz, bo'yniga bir
Malomatni ortamiz.
Deymiz, seni biz ehtiyot

Qilmoqdamiz, Mirg'iyos,
Baland uchma! Tinch senga shul
Eski hammom, eski tos.

Bozorimiz o'sha bozor,
Oloy, Eski Jo'vamiz,
Maqol o'sha, pul bo'lsa gar
Changaldadir sho'rvamiz.
Bir to'ruva pul bilan tushsak,
To'lib chiqmas to'rvamiz.
Barakalla, epchil yigit,
Qandingni ur, Mirvaqqos,
Kasbing o'sha, nafsing o'sha:
Eski hammom, eski tos.

Do'konimiz o'sha do'kon,
Unga ham hech rivoj yo'q,
Pul changallab, ko'ngildagi
Mol topishga iloj yo'q,
Turmush derlar, bola-chaqa,
Kimda ham ehtiyoj yo'q,
Har yulg'ichga quyuq salom,
Har o'g'ridan iltimos.
Holatimiz o'sha-o'sha:
Eski hammom, eski tos.

Sodda, mo'min odamlarmiz,
Ko'ngilda yo'q kirimiz,
Olam hayron, anglolmas ne
Bu yuvvoshlik sirimiz.
Biz jim turdik, o'ldi Orol,
Bitdi Amu, Sirimiz,
Avlodlarga qolar bo'ldi
Zaharlangan yer meros,
Dod faryoddan ne naf, amal —
Eski hammom, eski tos.

Farzandlarni biz ne uchun
Keltiramiz dunyoga
Aqlu qalbin, umru baxtin

To'ldirmasak ziyoga?
Tug'dirmog'u tug'moq bizdan,
Qolgan umri xudoga.
Yana baxtli bolalikdan
Solurmiz ayyuhannos.
Nahot, bo'lgay ertamiz ham
Eski hammom, eski tos.

Xo'p ish bo'ldi, o'zbekmas deb
Aytдик Ibn Sinoni.
Gar mo'jiza tiriltirsa
Ul tabarruk siymoni,
Bolalarning o'limidan
Qirq gaz sakrab imoni,
Derdi, naslim, bilmadim yo,
Papuasmi, eskimos.
Gaplar oshkor, ishlar esa
Eski hammom, eski tos.

Bizga ishdan hech gapirmang,
Gap sotishga ustamiz,
Yuk tortishmas, birovlariga
Yuk ortishga ustamiz.
O'lganlarning orqasidan
Tosh otishga ustamiz,
Tirigida deymiz faqat
Payg'ambarlik sizga xos.
Yaltoqilik o'sha-o'sha:
Eski hammom, eski tos.

Dilimizda gapimiz ko'p,
Aytgan bilan bitmaydi,
Lekin dardlar chorasiga
Gapning o'zi yetmaydi.
Bundan buyon aravada
Jim o'tirish ketmaydi,
Yo'qsa, tarix bir kun bizdan
Olajakdir alqasos,
Nasibamiz bo'lgay mudom:
Eski hammom, eski tos.

1988

Bizlar arra tortmoqdamiz

Bizlar arra tortmoqdamiz,
Arramizning tishi yo'q.
Nega arrang tishi yo'q, deb
So'raydigan kishi yo'q.

Chunki bizlar anoyimas,
Pishib ketgan ko'zimiz.
Arra tushgan o'sha shoxda
O'ltiribmiz o'zimiz.

1991

Og'riqli savollar

Choyxonada oshxo'rlikni baxt deb bilgan
og'ayni,
Shu bir kunlik xalovatni naqd deb bilgan
og'ayni,
Qumursqadek tiriklikdan o'zga g'ami
bo'lmagan,
Dil olami, ishq olami, ruh olami
bo'lmagan,
Imonni ham, vijdonni ham qurbon qilgan
halqum deb,
Seni xayol qildimmi men kuyganimda
xalqim deb?
El mulkini bir chekkada tinch kemirib
yotgan zot,
Besh tiyinga qadrini ham, xalqini ham
sotgan zot,
Ko'kragida na himmatu na g'ayratdan asar
bor,
Yuragida na oriyat, na shavq bor, na kadar
bor,
Umrida hech qilgan emas mulkdan o'zga bir
niyat,
Seni deya tiladimmi yuraklarga hurriyat?

Ey, ko'ngilda mojarolar orzu qilib yotgan
jon,
Tangring — amal, martabadir,
payg'ambaring — shuhrat, shon.
Bu davlatga o't qo'yan, yo'qotasan
xilqatdan,
Gar hokimlik tegar bo'lsa senga yangi
davlatdan.
Quruq gapdir senga Vatan, xalqu ozod istiqbol,
Sening uchun istadimmi yurtimga men
istiqlol?
Mudom kurash azobini fidoyilar
ko'rganlar,
Inqiloblar hosilini muttahamlar
o'rganlar.
Siz ham bugun panadasiz, jangga bizni
qayraysiz,
Biz bu jangda shahid bo'lsak, avvalo siz
yayraysiz.
G'ofil xalqim! Tinglarmanmi sening
na'ra — uningni,
Ko'rarmanmi zuluklardan ozod bo'lgan
kuningni?

1991

Tush

Bir oy bo'ldi,
Takror-takror
Men bir xil tush ko'raman,
Tushlarimda mudrab yurgan
El ichida yuraman.
Ular bilan
Men ham mudrab
Asta qadam sudrayman.
Bu — tush, deyman,
Uyg'on, deyman,
Uyg'onolmay mudrayman.

Har tun shu hol,
Falak bergan
Bu ne balo qiynoqdir!
Ey xudoyim,
Ey xudoyim,
Kechang buncha uzoqdir?!

1991

Savag'ich

Savag'ich paxtaga
Deydi:
— Qalaysan?
Qo'limga tushding-ku,
Shoshmay tur, seni...
Savag'ich!
Paxtani nega savaysan?
Paxtada ne gunoh?
Savala meni!

Paxtaning tani oq,
Yumshoq badani.
Nozik-nihol ekin,
Shafqating qani?
Axir mening yurtim
Paxta vatani,
Paxtada ne gunoh?
Savala meni!

Kecha behi eding,
Quriding, so'lding,
Qirqilding, yo'nilding,
Savag'ich bo'lding.
Sen bunga paxtani
Aybdor deb bilding,
Paxtada ne gunoh?
Savala meni!

Bog'-rog'lar kesilsa,
Paxtadami ayb?

Yaylovlar buzilsa,
Paxtadami ayb?
Go'daklar ezilsa,
Paxtadami ayb?
Paxtada ne gunoh?
Savala meni!

Kuni kecha edi...
Suluv kelinchak
Soyangda qurgancha
Rangin belanchak
Bola allalardi...
So'ldi u chechak...
Paxtada ne gunoh?
Savala meni!

Qo'sh xivich, chiyillab
G'azabkor, xunxo'r,
Bechora paxtaga
Yetkurma ozor.
Suing ichgan bo'lsa
U sendan nochor,
Paxtada ne gunoh,
Savala meni!

Garchi she'rda nomi
Oltinu marjon,
Turupdan beqadr,
Sholg'omdan arzon.
Dehqon shu arzonga
Yil bo'yi sarson,
Paxtada ne gunoh?
Savala meni!

Meni ur, paxtani
Kuylagan menman.
Ertayu kech uni
O'ylagan menman.
Olamga maqtanib
So'ylagan menman,

**Paxtada ne gunoh?
Savala meni!**

**Uni madh etmoqning
Mohiri o'zim,
Madhimga ishondim
Oxiri o'zim,
Turg'unlik davrining
Shoiri o'zim,
Paxtada ne gunoh?
Savala meni!**

**Elim burch deganda
Paxtani bilgan,
Zarur bo'lganida
Ko'rpadan shilgan,
Bitta chanoq uchun
Odam otilgan,
Paxtada ne gunoh?
Savala meni!**

**Joni sabil bo'lgan
Insonlar uchun,
Yetimlar ko'ksida
Fig'onlar uchun,
Afsus, nadomatlar,
Armonlar uchun
Paxtada ne gunoh?
Savala meni!**

**Ko'rakdek og'izni
Yumarmiz har dam.
Ochmasam chanoqdek
Dilni endi ham
Men nechuk shoirman,
Men nechuk odam?
Paxtada ne gunoh?
Savala meni!**

1988

Ilza xonim

I. L. Sirtautasga

Ona tilim!
Mehring bu qadar
O'rtaguvchi ekan jonimga.
Asir bo'lib lolu masaxxar
Termulaman Ilza xonimga.
Termulaman Ilza xonimga,
Ko'zlarimga ishonmay hayron.
Amriqolik xushro'y olima
So'zlar edi o'zbekcha ravon.
«Sietlga xush kelibsizlar,
Olis yurtdan yo'l bosib yiroq.
Tanishinglar, bu yigit, qizlar
O'zbekchadan olmoqda saboq...»
Dasturxonda parvarda, pashmak,
Xandon pista, qip-qizil shirmoy.
Atlas kiygan suluv kelinchak
Odob bilan uzatar ko'k choy.
Men es-hushim yig'masdan hali
Qulog'imga dilbar kuy yetdi.
Nakamuri — yapon go'zali
«Tanovar»ga charx urib ketdi.
Ona yurtim!
Mehring bu qadar
Aziz ekan dilu jonimga.
Termulgancha lolu musaxxar,
So'z aytaman Ilza xonimga:
— Ming tashakkur o'zbek elidan,
Yashang, dunyo turguncha turing.
Iltimosim, shogirdlar bilan
Diyorimga tashrif buyuring.
Keling, sizni Ona yurt uchun
Fidolar bir tinglab quvonsin.
Bu quvonchdan lekin bir umr
Judolar ham tinglasin, yonsin.
O'z elati mehridan dilin
Yot tutganlar sizni eshitsin.

O'z yurtida O'z ona tilin
Unutganlar sizni eshitsin.
Sizni ko'rsin jaholat, g'aflat
Uyqusida yotgan bandalar.
O'z qadrini unvon, manfaat
Bozorida sotgan bandalar.
Amaldor zot hamqishloqlarga
Tashlagandek balanddan nazar,
Chiqqan chog'i baland minbarga
O'z tilidan qilganlar hazar,
Umri o'tib O'zbekistonda
Assalomni bilmaganlar ham,
Ikki og'iz bizning zabonda
Arzu insho qilmaganlar ham,
Ilmda-yu mahkamalarda
Loyiq unga joy bermay halol,
O'zbek tilin eski shaharda
Bozor tili qilganlar xayol —
Ilza xonim,
Sizni eshitib,
Xatolarin bilsalar edi.
Andak tilning qadriga yetib,
Sal insofga kelsalar edi.
Ey siz, dono ustoz olimam —
Olis yurtda munis yo'ldoshim,
Sizga egay podsholarning ham
Huzurida egmagan boshim.

1989

Iztirob

Betavfiq rahbarni so'kkanim uchun
Uch yil yotar bo'lsam yotganim bo'lsin,
Uning yo'q obro'sin to'kkanim uchun
To'lov bersam borim sotganim bo'lsin.

Xalqimga qadringni bil desam agar,
Kurash, haqni oshkor qil desam agar,
Bu qutqu atalsa davlatga zarar
Qancha azob bo'lsa tortganim bo'lsin.

Amaldor der esa, tuzum — men o'zim,
Farmon farmonimdir, so'z mening so'zim,
Men bunday tuzumdan o'girib yuzim
Tamom jinoyatga botganim bo'lsin.

Tiflisda xalq uzra tank yuborgan zot
Sha'nin qilar bo'lsa qonun ehtiyot,
O'sha zot kommunist bo'lsa, men, hayhot,
Firqa daftarimni otganim bo'lsin...

1989

Yuragingda makon tutgan qul

Bilmam, qandoq, ne sabab, qachon
Hayotingga oshno bo'lgan ul —
Boshi egik, beso'z, beisyon
Yuragingda makon tutgan qul.

Kimga da'vo qilursan, bilmam,
Qaysi maslak, qay tuzum mas'ul?
Ketmas bo'lib joy olmish mahkam
Yuragingda makon tutgan qul.

Iskanjadan yetim zurriyod,
Qatag'ondan beva qolgan tul,
Ko'hna zamin qa'ridan faryod
Yuragingda makon tutgan qul.

Burgut eding, parvozi baland,
Senga ham yor zulfiqor, duldul.
Nechuk uvol musicha monand
Yuragingda makon tutgan qul?

Umr qoshu kiprik orasi,
Gadolikdan adolik ma'qul.
Qullar ichra eng bechorasi
Yuragingda makon tutgan qul.

Kel, uyqulik ko'zingni och sen,
O'z holingdan qah-qah urib kul.
Shunday kulki, ichingdan qochsin
Yuragingda makon tutgan qul.

1991

Tushungan odam

Kimga hasrat qilsam bag'rimni o'yib,
Kimdan yuragimga tilasam malham,
Ohista yelkanga qo'lini qo'yib,
Yupatar: sen o'zing tushungan odam.

Gohida alamim sig'may ko'nglimga,
She'r bo'lib to'kilar va lekin ey voh,
Qayga borsam she'rim qaytar qo'limga,
Tushungan odamsan, dunyodan ogoh...

Hayhot, deyman, adling shumi, ey xudo,
Shundoq chizilganmi tarxingda olam?
Nogoh falakdan ham qaytar aks sado,
Axir sen tushungan odamsan, bolam.

1991

Inson

(Qasida)

Sobitu sayyorada
Inson o'zing, inson o'zing.
Mulki olam ichra bir
Hoqon o'zing, sulton o'zing.

Sobit o'z ma'vosida,
Sayyor fazo dunyosida,
Koinot sahrosida
Karvon o'zing, sarbon o'zing.

Shams — dil taftingdadur,
Sayyoralar kaftingdadur,
Keng jahon zabtingdadur,
Bog‘bon o‘zing, posbon o‘zing.

Bu yorug‘ dunyo nadur?
Koshonadur, vayronadur,
Senga mehmonxonadur,
Mehmon o‘zing, mezbon o‘zing.

Bunda oq birla qaro,
Zulmat, ziyo, shohu gado,
Jang qilurlar doimo,
Ul yon o‘zing, bul yon o‘zing.

Sen balo, ham muhtalo,
Xayr ila kin, rostu riyo,
Fitnagar olam aro
Fotton o‘zing, qurbon o‘zing.

Goh adolat bog‘ida,
Piri adovat gohida,
O‘z diling dargohida
Shayton o‘zing, g‘ilmon o‘zing.

Xormisan yo gulmisan,
Tojdormisan yo qulmisan,
Chug‘zmisan, bulbulmisan,
Nolon o‘zing, xushxon o‘zing.

Bu hayot o‘rmon ekan,
Jon borki, qasdi jon ekan,
Bunda qatl oson ekan,
Sirtlon o‘zing, jayron o‘zing.

Bu hayot ummon ekan,
Ummon abad gardon ekan,
Qatradek sarson ekan,
Sarson o‘zing, gardon o‘zing.

Mash'ali fikrat — sening,
Ham changali vahshat sening,
G'ayratu g'aflat sening,
Javlon o'zing, uryon o'zing.

Qilding u oyda xirom,
Ham yerda qon to'kding harom,
Ushbu holingdan mudom
Xandon o'zing, giryon o'zing.

Minding ilm narvoniga,
Chiqding funun osmoniga,
Bu jahon ayvoniga
Arkon o'zing, vayron o'zing.

Zarrani ijod etib,
Dahshat balo bunyod etib,
Oqibatni yod etib
Hayron o'zing, hayron o'zing.

Bog'i arz obod erur
Sendin agar imdod erur,
Yo'qsa u barbod erur,
To'fon o'zing, to'g'on o'zing.

Sen hilol, yulduz, salib,
Tavrot, Zaburdin yuksalib,
Boymisan yoki g'arib,
Komron o'zing, yakson o'zing.

Kim farangi, kim habash,
Irq, qon talash, imon talash,
Shulmi insondek yashash,
Armon o'zing, afg'on o'zing.

Mamlakatga mamlakat,
Millatga millat bo'lsa qasd,
Qilg'uvchi so'ng oqibat
Armon o'zing, afg'on o'zing.

Onaizoring — zamin,
Tanho yo'g'u boring — zamin,
Xasta bemoring — zamin,
O'g'lon o'zing, darmon o'zing,

Bag'rida yotquchi — sen,
Ne'matlarin totquchi sen,
Tig' bo'lib botquchi — sen,
Paykon o'zing, qalqon o'zing.

Marsga to'p otquchi — sen,
Zuhroni uyg'otquchi — sen,
Uyquda qotquchi — sen,
Uyg'on o'zing, uyg'on o'zing.

Kelding olamga, demak,
Yetmas uni so'rmak, yemak,
Yerni etmog'ing kerak
Bo'ston o'zing, rizvon o'zing.

So'zga ham poyon bo'lur,
Yozsam yana devon bo'lur.
Rustami doston bo'lur,
Doston o'zing, devon o'zing.

Bo'lmasin subhing qaro,
Bor bo'l mudom borliq aro,
O'zni etgil doimo
Inson o'zing, inson o'zing.

Ey, sen Erkin, sen bukun
Yozding dilingdan bir tugun,
Sen kumu ne dahri dun,
Biyron o'zing, nodon o'zing.

1973

Fursating

Fursating yetmaydi doim,
Hech qachon yetgan emas.
Mehnating bitmaydi doim,
Hech qachon bitgan emas.

Chun zamondek bepoyondir
Ko'ksing ichra orzu,
Fursatu orzuni quvlab
Hech kishi yetgan emas.

Intilar borliqni inson
Barkamol etmoq uchun,
Ne ajab, insonni borliq
Barkamol etgan emas.

Menda na borliq xayoli,
Menda na yo'qliqqa g'am,
Manglayimga chunki she'rdan
O'zga zar bitgan emas.

Vaqt kelar, mehnat bitar,
Bo'lg'usi vaqt ham bermalol,
Chunki u dunyoga hech kim
Ish olib ketgan emas.

1976

Navoiy g'azaliga muxammas

Ayriliq oni yaqindur, kema yo'l bongin cholur,
Vah, meni tashlab firoqqa, yor yiroqqa yo'l olur,
Jon borib jono bilan, sohilda bir jismim qolur,
Har qachonkim kemaga ul oy safar rahtin solur,
Mavjlig' daryo kabi oshufta ko'nglim qo'zg'olur.

Men necha aytdim, ko'ngul, jondin kechib yor
sevma¹deb,
So'ng yiroqqa ketsa tashlab, urma oh, dod dema deb,

Ketdi yor, bas endi, kim aytdi yoshingni tiyma deb,
Yig'lama, ey ko'z, nedin sohilga chiqmas kema deb,
Kim yoshing daryosidur har sorikim el ko'z solur.

Yel turar, yig'lar falak, bu guldurak ham barq dema,
Dardi hijronimni o'krab so'zlar osmon har kima,
Jism aro jondek omonat chayqalib borgay kema,
Titrabon siymobdek ko'nglim, yetar jon og'zima,
Tund yel tahrikidin har damki daryo chayqolur.

Ey falak, bas, yig'lama, yo'q foyda, ul oy kemada,
O'rtada daryoyu men bu joyda, ul oy kemada,
Kelmas endi, oyda ne, ming oyda, ul oy kemada,
Sabr ko'ngulda, ko'ngil ul oyda, ul oy kemada,
Vahki, borib, termulib ko'z, mungrayib jonim qolur.

Taskinim shulkim, kema ko'zdan yo'qolmabdur hali,
Bir nafas bor fursatim yor yo'liga termulgali,
Oh, demay, saqlab nafas, qo'zg'olmayin turdim, vale,
Dam tutilgandin o'lar eldek yetibman o'lgali,
Surmasin deb kemasin, baskim, nafaslar asrolur.

Ey shamol, jim tur, samo jim, mavjudot, bir lahza jim,
Tingla, olam, tingla, odam, sen agar bo'lsang-da kim,
Buldur ustoz pandi: siymin tandin o'zga surma siym,
Kirma savdo bahriga olamdan istab sudkim,
Siym naqdi tushsa, lekin umr naqdi siyg'olur.
Sun qadah, bergil menga jonim haqin, ey piri dayr,
Kim qadahlar zarbidan chiqsin chaqin, ey piri dayr,
Bormi Erkinga ul ustozdin yaqin, ey piri dayr,
G'arq etar bahr fano g'am zavraqin, ey piri dayr,
Ilgiga chunkim Navoiy boda kishtisin olur.

1977

Yaxshidir achchiq haqiqat

Yaxshidir achchiq haqiqat,
Lek shirin yolg'on yomon,
Ul shirin yolg'onga mendek
Aldanib qolg'on yomon.
Umrimiz aldoq jahonda
Aldanib o'tgay, va lek
So'nggi qiynalg'on yomondir,
So'nggi qiynalg'on yomon.
Aytgali achchiq azobing
Bo'lsa dildosh yaxshidir,
So'z demay o'tli alamni
Joningga solg'on yomon.
Jonga solg'on ham na sozdir,
Elga so'ylab men kabi
Shoiri devonayi ishq
Nomini olg'on yomon.
Gar qilich kelsa boshingga,
Qo'rqma, Erkin, rostni ayt,
Yaxshidir achchiq haqiqat,
Lek shirin yolg'on yomon.

1988

Vatan istagi

Bu vatanda bir Vatan
Qurmoqni istaydir ko'ngil,
O'zni ozod qush kabi
Ko'rmoqni istaydir ko'ngil.

Bu Vatan timsoli bo'lsa
Tong quyoshi shu'lavor,
Shu'lalar qo'ynida charx —
Urmoqni istaydir ko'ngil.

Ul Vatanga bayroq — insof,
Tug'i sarhad muhri — mehr,
Sarhad uzra soqchidek
Turmoqni istaydir ko'ngil.

Kim bu tuproq qadrin istar
Aylamoq tuproqqa teng,
Ko'ziga tuproq bilan
Urmoqni istaydir ko'ngil.

Ul Vatan yelkanlarini
Ma'rifat ummonida
Qiblayi imon sari
Burmoqni istaydir ko'ngil.

Bas, yetar yolg'on saodat,
Yolg'on erk, yolg'on vatan,
Hurriyat zavqini chin
Surmoqni istaydir ko'ngil.

Qutlug' istiqlol kunida,
Ey Vatan, bag'ringda shod
Erkin o'g'loning bo'lib
Yurmoqni istaydir ko'ngil.

Sof havoning foydasi

Qirq yil hayot qurdik
Xotinjon bilan.
Qirq yil bir-birovga
Yondosh, mehribon.
Uni «jonim» desam
Hayajon bilan.
U meni ataydi
Hanuz «akajon».
Oltmish besh yoshimda
«Akajon» desa —
Ne ajab, men hamon
Yoshlikka oshno.
Yoshlikning bir siri
Ahillik esa,
Ikkinchisi — sayr,
Musaffo havo.
Faqat o'zimizga

Ayon sirimiz,
Kelishib olganmiz
Go'shangadayoq —
Jahldan junbushga
Kelsak birimiz,
Havoga chiqamiz
Boshqamiz shu choq.
Tanga davo ekan
Sof havo, bilsam,
Necha qor, yomg'irda
Ividim, qotdim.
Xotin bilan qirq yil
Yashagan bo'lsam,
Qirq yil sof havoda
Kechdi hayotim.
Shundoq umr ko'rdik
Xotinjon bilan,
U meni asradi
Sog'lom, navqiron.
Uni «jonim» desam
Hayajon bilan,
U meni ataydi
Hanuz «akajon».

1981

Matmusaning lagani

Matmusavoy shahardan
Lagan olib qaytardi.
Yo'l-yo'lakay o'y surib,
O'z-o'ziga aytardi:

Bu laganni ko'tarib
Olib borsam qishloqqa,
Xotin uni albatta
Idish qilar pishloqqa.

Tiyib bo'lmas hech qachon
Bola-chaqa deganni.

Ular pishloq talashib
Sindirishar laganni.

Shunda izlab chegachi
Men notavon bechora,
Qayta kelib shaharga
Bo'ladirman ovora.

Mashoyixlar gapi bor
Ish ko'zini bil, degan.
Har yumushda ertaning
Hisobini qil, degan.

Nima qilsam ekan deb,
Bir dam o'yga toldi u.
So'ng laganni sindirib,
Chegalatib oldi u.

Shunday qilib, uyiga
Qaytdi og'zi quloqda.
Hamma uning aqliga
Qoyil qoldi qishloqda.

Matmusaning charxpalagi

Polvon edi Matmusa,
To'rt fil kuchi jam edi.
Qishloqda eng zo'r, ammo
Aqli biroz kam edi.

Matmusani shundan hech
Ko'zga ilmas edilar.
Qo'rqsalor ham undan, hech —
Hurmat qilmas edilar.

Bir kun dedi Matmusa,
Shunday kuchga egamen.
Shuhratim yo'q el aro,
Beobro'man nega men?

Ot ko'tardim tish bilan,
Kuldi faqat odamlar.
Arzimagan ish bilan
Topdi hurmat odamlar.

Men ham aqlim ko'rsatib
Hayron qilay hammani.
Dono bo'lib bir o'zim.
Nodon qilay hammani.

Bo'z ariqda ko'p zamon
Bor eski bir charxpalak.
Ko'ribdiki, bir tomon
Aylanar u g'ildirak.

Balki ming yil narida
Aylangandir shu yo'sin.
Matmusaning davrida
Yangilik bir ish bo'lsin.

Turdi biroz o'y surib,
Yurdi shaxdam ilgari.
Charxpalakni sug'urib
Shartta qo'ydi teskari.

Bu ijoddan el darak
Topdi sahar pallada.
Jadal chopar charxpalak,
Lekin suv yo'q dalada.

O'ylar ahli ulamo
Tuzatmoqning yo'lini.
Mag'rur turar Matmusa
Belga qo'yib qo'lini.

Kim charxpalak kosasin
Yalpoq qilish kerak, der,
Kim kosaga osma sim
Qopqoq qilish kerak, der.

Der idroki eng yuksak
Qashib turib kallani:
— Daryoni sal ko'tarsak.
Sal tushirsak dalani...

— Yo'q, ish bitmas «sal» bilan!
Qishlog'imiz erlari
Charxpalakni gal bilan
Aylantirsin teskari.

— Yo'q, kuchimiz ojizroq,
Qiynalmasin el joni.
Teskariga oqizmoq
To'g'ri bo'lar daryoni.

Emish, hamon qilar bahs
O'sha qishloq erlari.
Charxpalak-chi, suv bermas,
Aylanarmish teskari.

Tandir kiygan Matmusa

O'zi tandir qurolmay,
Ko'nib oxir taqdirga,
Shahar tomon yo'l oldi
Matmusavoy tandirga.

Tandir bozor qizigan,
U tushgacha aylandi
Va nihoyat bozorning
Zo'r tandiri saylandi.

Chertsa, uch kun jaranglar,
Bir umrga yetadi.
Lekin uni qishloqqa
Qanday olib ketadi?

O'ylab ko'rsa, eshakka
Ortmoqning yo'q chorasi.

Ortganda ham, arqonlab
Tortmoqning yo‘q chorasi.

Ahli bozor yig‘ildi,
Qizib ketdi maslahat.
Barchada bir shu tashvish,
Hammada shu o‘y faqat.

Kengashildi, o‘ylandi,
Mindirildi oxiri
Eshagiga — Matmusa,
Matmusaga — tandiri.

U shod, bundoq tadbirni
Topmas eng zo‘r topqir ham.
O‘zi yayov qolmadi,
Zap o‘rnashdi tandir ham.

«Hayyo-hayt» deb yo‘l oldi
Donishqishloq tomonga.
Mana, tandir ichidan
Qarab borar osmonga.

Har qanchaki intilar
Matmusa yo‘l ko‘rolmas.
Mening uyim qayda? — deb
Odamlardan so‘rolmas.

Ketib borar tavakkal,
Ko‘kka qarab «Tangrim!» — der, —
Meni qilma sharmanda,
Eshaginga aql ber».

Bedapoya ko‘rganda
Eshak sho‘rlik netadi?
Qishloq qolib mag‘ribda,
Mashriq tomon ketadi.

Kun botaru shom tushar,
Yulduz chiqar osmonga,

Hamon borar Matmusa,
Yetmas manzil-makonga.

Deydilarki, to bu dam
Yo'lda emish Matmusa.
Boshi ham yo'q, cheki yo'q
Cho'lda emish Matmusa.

Ayo do'stlar, adashgan
Bir mo'mindan kulmaylik.
Matmusadek o'zimiz
Tandir kiygan bo'lmaylik!

Matmusaning mehmondo'stligi

Mehmon juda azizdir
Donishqishloq tomonda.
Derlar, mayli biz o'lsak,
Mehmon bo'lsin omonda.

Mana, shaharlik mehmon
Qishloq kezib yuribdi.
Unga go'zal tabiat
Ma'qul bo'lib turibdi.

Ayniqsa to'polon soy
Mehmonga yoqib ketdi,
Oh-oh deb suvga tushdi,
Tushdi-yu, oqib ketdi.

Goh cho'kar, goh ko'rinar,
Dod solar: «Qutqaringiz»,
«Spasite», «dast bideh»,
«O may frend, xelp mi, pliz».

Ispancha, portugalcha,
Lotincha qichqiradi.
Belni ushlab Matmusa
Hayron bo'lib turadi.

«Shuncha tilni o'rganib
Boyvachcha bo'larmiding?
Undan ko'ra suzishni
O'rgansang o'larmiding».

Ovozi o'chganida
Suv kirib tomog'idan,
Mehmonni olib chiqdi
Ushlab bo'yin bog'idan.

«Shaharlik shaharlik-da»
Der Matmusa ko'nglida,
«Kerakli arqonini
Olib yurar bo'ynida».

Qirg'oqqa chiqdi shoshmay,
So'ng aqlini yuritib,
Arqonidan daraxtga
Osib qo'ydi quritib.

Matmusaning qo'shig'i

Beish qoldi Matmusa,
Endi ne qiluv kerak?
Bir tovuqqa albatta
Ham donu ham suv kerak.

Bekor qolsang yostiq ham
Yonboshingga botadi.
Televizorga tokay
Termilgancha yotadi?

Oinayi jahonda
Kuylamagan og'iz yo'q.
O'ylab ko'rsa o'zidan
O'tadigan hofiz yo'q.

O'yladi, avval boshni,
So'ng yonboshni qashladi.

To'rtta odam yig'lsa
Qo'shiq ayta boshladi.

Eshitarmi odamlar,
Eshitmasmi, ishi yo'q?!
«Bog' aro»ni ko'tarar,
Bas, deydigan kishi yo'q.

O'zi bo'lar mahliyo
O'zi aytgan kuylarga.
Taklif bo'lsa, bo'lmasa
Boraverar to'ylarga.

Matmusa kelgan yerdan
Qochar bo'ldi odamlar,
Tunlar quloqqa yosti
Bosar bo'ldi odamlar.

Oqsoqollar dedilar:
Bir ilojni o'ylaylik.
Matmusani qishloqqa
To'ra qilib qo'yaylik.

Bo'lsa katta amaldor,
Kursisi baland bo'lsa,
Majlis, qabul, nutq, safar...
Xullas, doim band bo'lsa,

Balki qo'shiq aytishga
Vaqti qolmas, ulgurmas.
Amalidan uyalib
Hofizlikni ep ko'rmas...

Kelishdilar, Matmusa —
Endi qishloq to'rasi
Ko'payib qoldi, ko'ring,
Qadrdoni, jo'rasi.

U kursida o'ltirar,
Qo'lni qo'yib beliga.

Yana ham qiyin bo'ldi
Donishqishloq eliga.

Kimki biror ish bilan
Huzuriga kiradi —
Matmusa arz eshitmas,
Qo'shiq aytib beradi.

Chidab sukut saqlagan
Marhamatga esh bo'lur.
Qo'shig'ini maqtagan
Albat ishi besh bo'lur.

Oqibat Matmusaning
Kasali battar bo'ldi.
Sahar boshlab ashula
Kechgacha aytar bo'ldi.

Oqshomlari guzarda
Avjni olib turadi.
Eshitsang-ku xo'bu xo'b,
Eshitmasang — uradi.

To'ra bo'lgach, boshqa xil
Ovozlarni yo'qotdi.
Meni mazax qildi, deb
Xo'rozlarni yo'qotdi.

Donishqishloqda endi
Boshqa biror qo'shiq yo'q.
Birgina Matmusaning
Qo'shig'iga to'siq yo'q.

Odamlar ijirg'anib,
Qarg'ab, quloq soldilar.
Iloj qancha, oxiri,
O'rganib ham qoldilar.

Hatto qo'msab, noyob deb,
So'ylar bo'ldi haloyiq.

Matmusaga o'xshatib
Kuylar bo'ldi haloyiq.

Qarsak, olqish, madhiya
Avjga chiqdi basma-bas,
Halq dedi: bizga endi
Boshqa qo'shiq kerakmas.

Hammamiz bu qo'shiqning
Fidoyisi bo'lamiz.
Uni aytib yashadik
Uni aytib o'lamiz.

Alqissa, bulbuli yo'q,
Xo'rozi yo'q ul mavo —
Donish qishloqda hamon
Yangrar yolg'iz bir navo.

Matmusaning Amerika ochishi

Gazeta o'qib yotib
Matmusa o'y o'yladi.
Elni yig'ib ertalab
Shunday bir nutq so'yladi.

Donolar! Sizga aytay
O'ylagan bir xayolim.
Uni aytishdan avval
Bordir bitta savolim.

Ayting, Amerikaga
Kim dastlab qo'ygan qadam?
Kolumbmi? Yo'q! Xitoylar —
Besh ming yilcha muqaddam.

Ular borgan kunchiqar,
Ya'ni bizning tomondan.
So'ng bu qit'ani ochgan
Kolumb narigi yondan.

Endi men sizga aytsam
Maqsadu muddaoni:
Bizning zamon nom chiqar
Ish qilmoqning zamoni.

Kiroyi dong taratsak
Dunyoga tarataylik.
Amerika ochmoqqa
Yangi yo'l yarataylik.

Kirishsak Xitoyni ham
Kolumbni ha yiqamiz.
Shu joydan yer kavlasak
Nyu-Yorkdan chiqamiz.

Lekin bizlar qaziymiz
Qishloqning etagidan.
Shunda teshib chiqamiz
Naq Oq uyning tagidan.

Jahonni lol qoldirib
Shuhrat olib qaytamiz.
Prezidentni shartta
Qopga solib qaytamiz.

Jahonshumul inqilob
Bundan oson hal bo'lmas.
Yer yuzida shundan so'ng
Boyu kambag'al bo'lmas,

Matmusaga qarsaklar
Ostida to'n yopildi.
Ammo — lekin ba'zi bir
«Mujmal»lar ham topildi.

Kimdir dedi: — Bu ish zo'r,
Menda faqat bir xayol:
Yer darz ketsa, ikkiga
Bo'linishi ehtimol.

Birov dedi: — Biz agar
Yer sharin teshib qo'ysak,

G'o'rillab shamol yursa
Bo'lmasmikin yelvizak?

Va lekin Matmusani
Yoqlab ketdi ko'pchilik.
Vahima qilganlarni
Boplab ketdi ko'pchilik.

Donishqishloq shu kundan
Boshqa ishni tashladi
Matmusa aytgan joydan
Xandaq kavlay boshladi.

Rosa terga tushdilar,
Kun tobida, yer zarang.
Ish bitay degan chog'da
Suv chiqib qoldi, qarang.

Ishga tushdi paqirlar,
Bir zum orom bo'lmadi.
Kechgacha suv tortdilar,
U hech tamom bo'lmadi.

Tirishdilar kun bo'yi,
Ertalab tirishdilar.
Bo'lmagach, boshqa yerni
Kavlashga kirishdilar.

Donish ahli chayir xalq,
Donish ahli ko'p shovvoz.
Yer qazib, suv chiqarib
O'tdi ko'p qish va ko'p yoz.

Bu mehnatdan ko'mildi
Yarim qishloq tuproqqa.
Qolgan yarmi aylandi
Qurbaqazor botqoqqa.

Ko'p vaqtqi, Donishqishloq
Mingquduq deb atalar.
El ichida Matmusa
Mirquruq deb atalar.

Lekin u yo‘ldan qaytmas,
Der, bu yo‘l haq yo‘lidir.
Xalq uni tanlagan, bas,
Demak, u xalq yo‘lidir.

Simiramiz suv kelsa,
Tosh kelsa kemiramiz,
Ochamiz Amerika,
So‘ng uni yemiramiz.

Yaqinda u qishloqdan
Keldi yaxshi bir xabar.
Pudratga o‘tganmishlar
U yerda ham odamlar.

Borib ko‘rdim, shiddat zo‘r,
Umid katta, ish katta.
G‘ayrat qilgan bir joydan
Teshib chiqar albatta.

Shukurkim, keldi istiqlol

Agarchi ismim Erkin.
Erki yo‘q, bandi kishan bo‘ldim,
Ko‘zim bog‘liq, dilim dog‘liq,
Tilim yo‘q, besuxan bo‘ldim.

Ko‘rib hayratga tushdi
Bu jahon holi parishonim,
Bamisli ankabut so‘rgan —
Chibin, pajmurda tan bo‘ldim.

Muazzam Sayhunu, Jayhun —
Labida tashna lab qoldim,
Kiyintirdim jahonni,
Jismi uryon, bekafan bo‘ldim.

Chekibdur Boburu Furqat
Vatan hajrida afg‘onlar,

Men ersam, vah, ne g'urbatkim,
Vatanda bevatan bo'ldim.

Olisda, oh, diyorim, deb
Sog'ingan, ey vatandoshim,
Dema sen o'zni bebaxt,
Baxti yo'q aslida man bo'ldim.

Shukurkim, keldi istiqlol,
Umidim rost qil, Ollohim,
Ki, shoyad beqafas bulbul
Kabi sohib chaman bo'ldim.

Ishonchim bor, Vatan, bir kun
Kelar chin nurli davroning,
Degayman shunda chin Erkin.
Chin inson qaytadan bo'ldim.

1991

Navro'z nashidasi

Yurtim!
Ilhomimga sarchashma o'zing,
Birdek aziz menga yozing ham kuzing,
Bukun bahoringga she'r aytmoqchiman,
Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.

Yana olam bo'ldi yashil, serfusun,
Yana qizg'aldoqlar ochildi gulgun.
Bu yilgi ko'klaming o'zgacha butun,
Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.

Qattiq qishdan chiqding zax tortib, xorib,
Yerdan chiqqan kabi boychechak yorib.
Bag'ringdan muz ketdi xamalga borib,
Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.

Qir yashil, bog' yashil, bo'stondir yashil,
Bahoriy libosda jahondir yashil,

Erk yashil, istiqlol, imondir yashil,
Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.

Boshingda hurriyat quyoshing bordir,
O'z Tug'ro, Bayrog'ing, Yurtboshing bordir.
Maqsading, g'ayrating, bardoshing bordir,
Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.

Yosh chinorsan, o'zni tutib olarsan,
«Ilik uzuldi»dan o'tib olarsan.
Yuzlab bahorlarni kutib olarsan,
Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.

Bugun dalalarga qadalgan urug'
Inshoolloh, rizqu barakot to'lug',
Ey, umid o'lkasi, ertasi ulug' —
Vatanim, muborak bo'lsin navro'zing.

1992

Turkiston bir, vatan bir

Qadim ona bu tuproq
Turkiston bir, vatan bir.
Bizga jondan azizroq
Turkiston bir, vatan bir.

Al-Beruniy yodi bor,
Yassaviy faryodi bor,
Qoshg'ariy ijodi bor,
Turkiston bir, vatan bir.

Tangritog' — shamoili,
Jayhun, Talas va Ili —
Bobolarim manzili —
Turkiston bir, vatan bir.

Forobiy cholg'usida,
Navoiy orzusida,
Shoh Bobur qayg'usida
Turkiston bir, vatan bir.

Temur bobom tug'ida,
Shermuhammad ruhida,
Istiqlol shukuhida
Turkiston bir, vatan bir.

Tojik — yuksak Pomirim,
Turkman — tutash tomirim,
Qirg'iz, qozoq — bovorim —
Turkiston bir, vatan bir.

Mustafo Cho'qay joni,
Cho'lponning shahid qoni,
Qodiriyning armoni —
Turkiston bir, vatan bir.

Yovlar pora qilgan tan,
Xomtalash bo'lgan vatan.
Oh, bo'lurmi qaytadan
Turkiston bir, vatan bir.

Ona yerga quloq tut,
Nidolar bo'lmas unut.
Ruhlar aytar: ona yurt
Turkiston bir, vatan bir.

1992

O'zbekiston bog'lariga qaytib keldi bulbullar

Bugun sahar bulbullarning chah-chahidan uyg'ondim,
Shohimardon tog'larida bir yayradim, quvondim.

Bir-biriga navbat bermay qo'shiq aytdi bulbullar,
Shukr bo'lsin, bog'larimga yana qaytdi bulbullar.

Necha zamon noyob edi o'lkamda bu tarona,
Necha zamon bulbullarni sog'ingandi Farg'ona.

Tomigacha paxta ekkan elda netar bulbullar,
Osmonidan zahar yoqqan yurtdan ketar bulbullar!

Chamanzorlar shudgor bo'lsa bulbul qandoq yayrasin,
Erk qushchasi erk yo'q joyda qandoq qilib sayrasin?

Mana, bukun bog'larimga qaytib keldi bulbullar,
Hur Vatanga hur qo'shiqlar aytib keldi bulbullar.

Men ham endi qalamimni she'rlar uchun charxlayin,
Bu sehrli taronani g'azallarda sharhlayin.

Bugun sahar bulbullarning chah-chahidan uyg'ondim,
Shohimardon tog'larida bir yayradim, quvondim.

Chamanlarda sho'x sayrasin, zavqqa to'lsin bulbullar,
Qaytmas bo'lib vatanimga kelgan bo'lsin bulbullar.

1992

* * *

Vatan, to tanda jonim bor,
Seningdirman, seningdirman,
Tanim hok o'lsa ham sen yor,
Seningdirman, seningdirman.

Jahon kengdir, falak kengdir,
Yurak kengdir, chu sen borsan,
Seningsiz ikki dunyo tor,
Seningdirman, seningdirman.

Menga begona ellarda nasib gar
O'lsa yuz rohat
Chekay bag'ringda ming ozor,
Seningdirman, seningdirman.

Agar shodliklaring ozdir,
Meningdiansan, meningdiansan,
Magarkim g'amlarim bisyor,
Seningdirman, seningdirman

Bugun bor, erta yo'q jismim,
Va lek ruhim uchun mangu

Sening mangufiging darkor,
Seningdirman, seningdirman.

Sening ishqing bilan yondim,
Ketar jonimda bu otash,
Seningdirman, yana takror,
Seningdirman, seningdirman.

1992

* * *

Qadaming muborak bo'lsin, yangi yil,
Umrin daftarining sheroz yili bo'l.
Umid Manzilini bisga yaqin qil,
Yuksalish yo'lining og'oz yili bo'l.

Bahor yomg'ir bo'lib barakangni soch,
Yozda oftob bo'lib tole yuzin och,
Kuzing to'kin kelsin, baxting borivoj,
Ozod Vatanimga parvoz yili bo'l.

1993

Hoji ota Marg'iloniy so'zi

Yetmish yillik umrim o'tdi xorijda
Yuzdan oshgan Hoji otang bo'laman.
O'lolmadim Istanbulda, Porijda,
Ona yurtidan ayru qandoq o'laman?

Qandoq ketay vatanimni ko'rmay hur,
Ilhaqlikdan zo'r dunyoda hech dard yo'q.
Mana, yetdim murodimga, ming shukur,
Endi, bolam, o'ladigan nomard yo'q.

Mehmon va mezbon

(O'zbekchilik lutflaridan)

— Meni mehmonga aysangiz,
Turtmasangiz boray,
Yumshoq o'rnimdan bo'yraga
Surmasangiz boray.
Qovog'ingiz osib, labni
Burmasangiz boray.
Tomog'imga xanjar tirab
Turmasangiz boray.
Mening uchun temir qafas
Qurmasangiz boray.
O'lar holga yetgunimcha
Urmasangiz boray.

— Siz men uchun aziz mehmon,
Turtarkanman nega?
Qovog'imni osib, labim
Burarkanman nega?
Yumshoq joydan qoq bo'yraga
Surarkanman nega?
Sizning uchun temir qafas
Qurarkanman nega?
Kim o'z mehmonin uripti?
Urarkanman nega?

— Borsam, yuqori chiqing, deb,
Meni turtasiz-ku,
Xohlagan joyimni bermay
To'rga surasiz-ku,
Paqqos oshingiz yemasam
Labni burasiz-ku,
May ichmasam xanjar tirab
Zo'rlab turasiz-ku,
Ketay desam qo'ymay temir
Qafas qurasiz-ku,
Nodonga hamsuhbat qilib
Meni urasiz-ku.

1994

Fargʻonaning yoʻllarida

Deydilarki, er kishining
Uyalgani — oʻlgani.
Fargʻonaning yoʻllarida
Quvib oʻtdik «Volga»ni.

Dovon oshib, shamol boʻlib
Uchar bizning «Jiguli»,
«Jiguli»mas, naqd «Boychibor»,
«Havopaymo» deguli.

«Jiguli»da biz — toʻrt ulfat,
Dunyo bilan ishi yoʻq.
Oʻzimizdan juda magʻrur,
Bizga yetar kishi yoʻq.

Kechqurungi bazmi jamshid —
Toʻyga shoshib boramiz.
Koʻringan har gʻildirakni
Quvib oshib boramiz.

Bir payt bizning jayron toyni
Bilolmadik ne sabab,
Pachoqqina «Zaporojets»
Quvib qoldi, voajab.

Oʻzmoq boʻlib yoʻlni goh soʻl,
Gohi oʻngga soladi.
Tumov boʻlgan xoʻroz kabi
Bibildogʻin chaladi.

Bizlar esa boʻsh kelmaymiz,
Mingga qoʻyib bosamiz.
Qiy-qiylashib, til koʻrsatib,
Masxaralab qochamiz.

«Zaporojets» nima boʻpti,
Quvib oʻtdik «Volga»ni.
Bos, der Parpi, er kishining
Uyalgani — oʻlgani.

Rixsitillo qichqiradi:
«Tog'orangni nari ol».
Egamberdi qah-qah urar:
«Eski qumg'on, yaxshi qoll!».

«Zaporojets» chidamadi,
To'rt ulfatni gangitib,
Shartta yo'lni qirga soldi,
Hammayoqni changitib.

Tarilladi, varilladi,
Quvib o'tdi, voh, qarang!
Quvib o'tib mashinani
Yo'lga qo'ydi ko'ndalang.

Biz to'xtadik. Yo'l berkilgan.
O'tishga hech imkon yo'q.
To'rtov hayron o'ltiribmiz,
Tizzalarda darmon yo'q.

«Zaporoj»dan chiqib keldi
Farg'onalik barzangi.
Barzangining har yelkasi
Naqd Chotqolning xarsangi.

Belbog'iga osib olgan
Pichog'i ham bir quloch.
Qaltiraymiz, oldga yo'l yo'q,
Qaytishga ham yo'q iloj.

Mashinani tashlab qochsak
Qayerga ham ketarmiz?!
Bitta-bitta ushlab olib
Chavaqlasa netarmiz?!

Ana, qaddin rosladi u,
So'ng atrofga alanglab —
Bizga qarab asta yurdi
King-Kong misol lapanglab.

Shu payt iloj bo'lsa edi
Biz to'rt akang qarag'ay,
Toshkentgacha qochar edik
Orqamizga qaramay.

Yaqin keldi, salom berdi,
Ertaklarda deydilar:
Devlar avval salom berib,
Keyin tutib yeydilar.

Derazadan qo'lni tiqdi.
Ulkan, jundor, dahshat qo'l.
«So'rashaylik» demaganda
Dodlar edik, engil ho'l.

Guldiragan ovoz bilan
Gap boshladi: «Ming uzr.
Yo'lingizni to'sib sizni
Qilgan bo'lsam behuzur.

Mashinangiz g'ildiragi
Bo'shayotir, akalar.
Motordan ham moy ketganga
O'xshayotir, akalar.

Shuni aytish uchun quvib,
Yo'lni to'sdim, kechiring!
Endi o'zim ko'rib beray,
Motor o'tin o'chiring».

Shunday deya kirib ketdi
Mashinaning tagiga.
So'ngra chiqib nasos urdi
Orqa g'ildiragiga.

Sehrlangan odamlardek
Turar edik biz hayron.
Qarashaylik desak qo'ymas:
«Farg'onaga siz mehmon»

Ish orasi latifalar
Aytib yana kuldirdi.

Xullas, shu kun dehqon yigit
Bizni tirik o'ldirdi.

Ishni sozlab, ariqchada
Yuvar ekan qo'lini,
So'rab borar manzilimiz,
Aytdi yaqin yo'lini.

So'ng bor qarab mashinaga,
Yon ko'zguni tuzatdi.
«Oq yo'l», dedi, o'zi ketmay
Avval bizni kuzatdi.

«Xayr, qamchi bosing, endi
Toychog'ingiz hech tolmas.
Bizning eski qumg'on tugul
Samolyot ham yetolmas».

Yo'lga chiqdik izza bo'lib
Qip-qizarib, sharmanda.
Eng yomoni keyin bo'ldi —
To'yxonaga borganda.

Ostonada o'sha yigit
Bizni kutib turardi.
Qo'lda qumg'on yelkasida
Sochiq tutib turardi.

Ko'zi kulib boqar edi,
Sir bermasdi u biroq.
Bundan ko'ra bizni tutib
Ursa edi yaxshiroq.

O'zimizga ayon shu kun
Bo'larimiz bo'lgani.
Deydilarki, er kishining
Uyalgani — o'lgani.

1996

Keksalik gashti

Qarilik gashtini maqtashdan ko'ra,
Muxbir bolam, uni bizlardan so'ra.
Mana, biz bu gashtni surayotirmiz,
Ertalab inqillab turayotirmiz,
Og'riqdan qaqshagan belimiz silab,
Kavushimiz sudrab, chunon imillab,
Belimiz changallab yurayotirmiz,
Qarilik gashtini surayotirmiz.

Bilakdan kuch ketgan, ko'zdan esa nur,
Pashshamizni zo'rg'a qo'rayotirmiz.
Bir mahal oq urib qilardik huzur.
Endi valokardin urayotirmiz.
Kelar ichimizdan xo'rsiniq chuqur.
Asqar tog' edik-ku, nurayotirmiz.
Ko'namiz, ne iloj, shunga ham shukur,
Harqalay ko'z tirik, ko'rayotirmiz,
Qarilik gashtini surayotirmiz.

Qarilikni havas qilmagin, bolam,
Yomon ko'rinadi ko'zingga olam.
Qariganda achib qolarkan odam,
Ba'zan bobov bo'lib hurayotirmiz,
Qarilik gashtini surayotirmiz.

Qarilik gasht emas, yulg'unli dasht ul,
Qarilik tikandir, yoshlik esa gul,
Yoshlikka ne yetsin, u o'zi ma'qul,
Yoshlik xazinadir, qarilik — bir pul.
Yigitlarga aytar nasihatim shul:
Yosh yoshlikda yoshlik gashtini sursin,
Keksalik ham kelar, uni ham ko'rsin,
Hozircha qarishga shoshmasdan tursin —
Belangisi qursin, yo'tali qursin.
Agar ma'qul bo'lsa faxriy degan nom
Barcha nishonimiz olib, bir oqshom

Yoshligini bizga qarz berib tursin.
Qarilik gashtini maqtashdan ko'ra,
Muxbir bolam, uni bizlardan so'ra.

1996

Shaxmat ustida aytilgan she'r

Men erkak o'rnida turishim kerak,
Yo xotin izmiga yurishim kerak.

Xotinning, to'y, lozim omadasi ko'p,
Ha, desa labbay, deb turishim kerak.

Ha, desa, labbay, deb turishim uchun,
Uyimda pul zavod qurishim kerak.

Uyimda pul zavod qura olmasam,
Eng katta bankani urishim kerak.

Eng katta banka ham qo'ldan kelmasa,
Ha, desa shalvirab turishim kerak.

Shalvirab turuvchi erkak bo'lgandan
Yo'q bo'lib dunyodan, qurishim kerak.

Dunyodan yo'q bo'lib ketmaslik uchun
Men erkak o'rnida turishim kerak.

Ya'ni erkaklarning ishini qilib,
Mazza qilib shaxmat surishim kerak.

1996

MUNDARIJA

Men jilg'aman	5
Kamtarlik haqida	5
Sevgi	6
Po'lat	6
Yo'q, halovat istamayman	7
She'r haqida she'r	8
Teranlik	10
Surat	10
Samarqand kechasi	11
Qizaloq	12
Kimni etmas bu ko'ngil shaydo	13
Yurak va aql	14
Go'zallik	16
Chumoli	16
Azganush	17
Fuzuliy haykali qoshida	18
Mening yulduzim	20
Bir tomchi yosh	21
Bosh tebratar soat kafgiri	22
Sadoqat	22
Kuy avjida uzulmasin tor	23
Yulduz	23
She'r va shaxmat	23
Kecha va kunduz	24
Uchi tuguk dastro'mol	25
Debocha	26
Barcha shodlik senga bo'lsin	27
Surma	28
Yo'q emish orzuga ayb.....	29
Sarv	30
Senga baxtdan taxt tilarman	31
Yoshligim	32
Xayol	33
Uzum	34
Do'st bilan obod uying	35
Rashkim	36
Dutorim tori ikkidur	37
Oyning o'n beshi qorong'u	38
Gullar bazmi	39
O'rtada begona yo'q	40
O'zbekim (qasida)	41
Shoir qalbi	44
Qorxat	44

Hozirgi yoshlar	47
O'zbekiston	51
«Ey men bilgan»... ..	55
Tirik sayyoralar	55
Ota tilagi	56
Ona tilim o'lmaydi	58
Oqsoqol	59
«Agar do'sting bilan»	62
Arslon o'rgatuvchi	63
Sirdaryo o'landi	66
Shoirlik	67
Devonayi haqgo'y	67
«Orol...»	68
Dorulfununga	69
Jaholat to'g'risida rivoyat	70
Jumadan qolgan odam	77
Eski hammom eski tos	81
Bizlar arra tortmoqdamiz	85
Og'riqli savollar	85
Tush	86
Savag'ich	87
Ilza xonim	90
Iztirob	91
Yuragingda makon tutgan qul	92
Tushungan odam	93
Inson	93
Fursating	97
Navoiy g'oraliga muxammas	97
Yaxshidir achchiq haqiqat	99
Vatan istagi	99
Sof havoning foydasi	100
Matmusaning lagani	101
Matmusaning charxpalagi	102
Tandir kiygan Matmusa	104
Matmusaning mehmondo'stligi	106
Matmusaning qo'shig'i	107
Matmusaning Amerika ochishi	110
Shukurkim, keldi istiqlol	113
Navro'z nashidasi	114
Turkiston bir, vatan bir	115
O'zbekiston bog'lariga qaytib keldi bulbullar	116
«Vatan, to tanda jonim bor»	117
«Qadaming muborak bo'lsin...»	118
Hoji ota Marg'iloniy so'zi	118
Mehmon va mezbon	119
Farg'onaning yo'llarida	120
Keksalik gashti	124
Shaxmat ustida aytilgan she'r	125

ERKIN VOHIDOV

O'ZBEGIM

She'rlar

«Sharq» nashriyot-matbaa
aksiyadorlik kompaniyasi
Bosh tahririyati
Toshkent — 2005

Muharrirlar: *Minhojiddin Mirzo, Erkin Malik*
Rassom Anvar Musaxo'jayev
Badiiy muharrir *Gulchehra Shoabduraximova*
Texnik muharrir *Ra'no Boboxonova*
Musahhiha *Nodira Oxunjonova*

Terishga berildi 28.09.2004. Bosishga ruxsat etildi 3.01.2005.
Bichimi 84x108^{1/32}. Tayms Uz garniturası. Ofset bosma. Shartli bosma
tabog'i 6,7. Nashriyot-hisob tabog'i 4,2. Adadi 10000 nusxa.
Buyurtma № 815. Bahosi kelishilgan narxda

«Sharq» nashriyot-matbaa aksiyadorlik kompaniyasi bosmaxonasi
700083 Toshkent shahri, Buyuk Turon, 41